

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI  
MUHAMMAD AI-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

X.A.Bahriyeva

**“3 D TEXNOLOGIYALAR”**  
fanidan

**O'QUV QO'LLANMA**

TOSHKENT – 2017

Muallif: X.A.Bahriyeva “3 D texnologiyalar” fanidan uslubiy qo’llanma./TATU.162 v.  
Toshkent 2017

Hozirgi kunda jamiyatimizni AKTlarisiz tasavvur etish qiyin, shuningdek kompyuter grafikasisiz ham. Mamlakatimizda kompyuter grafikasi sohasini rivojlanitirish, uning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, dizayn sifatini oshirish va uch o’lchovli grafika imkoniyatlaridan foydalangan holda lohiyalar yaratishni o’quvchilarga o’rgatish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda 3 D texnologiyalar asosida qo’llaniladigan apparat vositalari va dasturiy ta’minotlari haqida talalarda bilim va ko’nikmalar hosil ham lozim. “3 D texnologiyalar” fani bo’yicha uslubiy qo’llanmaning maqsadi - uch o’lchovli ob’yektlarni modellashtirish, yorug’lik va kamera bilan ishlash, uch o’lchovli animatsiya yaratish imkoniyatlarini o’rganish.

Qo’llanma oliy o’quv yurti o’qituvchilari va talabalari foydalanishi uchun mo’ljallangan.

Taqrizchi(lar):

O‘zbekiston milliy universiteti  
“Informatika va tadbiqiy dasturlash”  
kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.

F.A.Kabiljanova

Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti “Informatika asoslari”  
kafedrasi mudiri, f.m.f.d.

Sh.A.Sadullayeva

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2017

## MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1. Kompyuter grafikasining rivojlanish tarixi. Uch o'lchovli grafikaning imkoniyatlari, afzallik va kamchiliklari. 3 D texnologiyalarining apparat vositalari.....	6
2. Modellash tirish tushunchalari. Obyektlar va ularning tuzilishi. Modellash tirish texnologiyasi. Poligonal modellar.....	39
3. Yuqori darajali modellashtirish. Rig texnologiyasi. Rig animatsiyasi va iyerarxik strukturasi.....	52
4. Render tushunchasi. Global yoritish. Fotorealistik render.....	56
5. Yorug'lik va uning asosiy komponentlari. Sahnalarni yoritish.....	61
6. Soya va sirt xususiyatlari. Rasm xaritasi. Soya va sirt texturasi. Yuza shaffofligi.....	69
7. Kamera. Kamera turlari.....	73
8. Animatsiyaning bir necha tamoyillari.....	77
9. Kompyuter animatsiya texnologiyalari. Kamera animatsiyasi. Yorug'lik animatsiyasi.....	83
10. Ikki va uch o'lchovli integratsiya. Yuqori darajali kompyuter animatsiya texnologiyalari. Teskari kinematika.....	89
11. Prossesual animatsiya. Yuz animatsiyasi. Ko`p qatlamli animatsiya.	96
12. Vizual effektlar texnologiyasi. Ko'k va yashil ekranlar.....	107
13. Uch o'lchamli Morphing(Rasm o'lchamlarini o`zgartirish). Motion Capture texnologiyasi.....	123
14. Materiallar yaratish. Obyektlarga material berish. Standart materiallardan foydalanish.....	137
Foydalanilgan adabiyotlar.....	162

## KIRISH

Bugungi kun talablari va zamonaviy sanoat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda “3D texnologiyalar” fani ko‘pgina sohalar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ushbu sohalardagi jarayonlarning kechishini bevosita uch o‘lchovli modellarini qurish va ularni animatsiya ko‘rinishida kuzatuvchilarga taqdim etishlar sababli unga bo‘lgan talab tobora o‘shib borayotganligini kuzatish mumkin.

Oxirgi yillarda ta‘lim tizimida zamonaviy 3 D texnologiyalaridan foydalanishga, xususan, multimediyaga asoslangan texnologiyalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atlarda rivojlanishi ta‘lim tizimiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatibgina qolmasdan, uni tashkillashtirishning asosiy vositasiga ham aylandi. Bunga misol eng tez rivojlangan va yuqori samara ko‘rsatgan ta‘lim texnologiyalari axborot-kommunikatsiyalar asosida tashkillashtirilganidir. Masalan, Cloud Computing, Mobile Learning, Tablet Computing, Open Content Learning, Analytic Learning, Virtual and Remote Laboratories.

XXI asr ta‘lim tizimi bevosita 3 D dunyo va multimedia texnologiyalari bilan bog‘langan. Oxirgi o‘n yillikda internet tarmog‘ida juda yuqori samaradorlikka erishilgan bo‘lsa, multimedia texnologiyalari va 3 D texnologiyalarining keskin rivojlanishi va internet bilan integrallashuvi uning imkoniyatini yanada boyityapti.

Ta‘lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta‘limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish ta‘lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta‘lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyalarga asoslangan muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta‘lim tizimini takomillashtirishga, ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ta‘lim jarayonida multimedia texnologiyalari va kompyuter grafikasidan foydalanish dars jarayonini interfaol shaklda olib borishga imkon beradi.

“3 D texnologiyalar” hozirgi kunda eng rivojlanayotgan va yosh sohalardan biri bo’lib, kundalik hayotimizda zamonaviy, dizaynga ega loyihalar yaratishda eng qulay texnologiyalardan hisoblanadi.

3D-modellashtirish o‘zida maxsuslashtirilgan dasturiy ta’minotdan foydalanib, 3D-modelni (yoki uch o‘lchovli obyekt ko‘rinishidagi karkas model) ishlab chiqish tartibini ifodalaydi. Uch o‘lchovli model chiziqlar va egri sirtlar bilan o‘zaro bog‘langan ko‘pgina nuqtalar yordamida yaratiladi. Uch o‘lchovli modellashtirish qo‘llaniladigan sohalar doimo kengayib bormoqda. U quyidagi: o‘yinlar, ya’ni realistik personajlarning modellashtirilishi amalga oshirilishi; tibbiyot — inson tanasi organlarining alohida modellarining yaratilishi; muxandislik — transport vositalari, yangi qurilma va inshootlar modeli ishlab chiqilishi; kinomatografiya — turlicha maxsus effektlar va xayoliy personajlar yaratilishi kabi soxalarni qamrab olmoqda. Shuningdek, reklama soxasida ham 3D-modellashtirishdan yetarlicha foydalanib kelinmoqda.

“3 D texnologiyalar” fanining asosiy maqsadi talabalarni yangi zamonaviy talablar asosida kompyuter grafikasidan foydalangan holda uch o‘lchovli o‘byektlarni modellashtirish, animatsiyalash, kameralar bilan ishlash, yorug‘lik manbaalari, uch o‘lchovli grafikaning asosiy uskunalari va ularning imkoniyatlari to‘g‘risida talabalarga bilm, malaka va ko‘nikmalar berish. Qo‘llanma materiallari murakkablik darajasining ortishi tartibida tuzilgan.

**1-Ma'ruza. Kompyuter grafikasining rivojlanish tarixi. Uch o'lchovli grafikaning imkoniyatlari, afzallik va kamchiliklari. 3 d texnologiyalarining apparat vositalari**

**Reja:**

1. Kompyuter grafikasining rivojlanish tarixi
2. Kompyuter grafikasi turlari va ularning imkoniyatlari
3. Uch o'lchovli grafikaning afzalligi va kamchiligi
4. Uch o'lchovli grafikaning apparat vositalari

**Kompyuter grafikasining rivojlanish tarixi**

Kompyuter grafikasi (mashinali grafika) — kompyuter tasvirlarni sintez qilish(yaratish) vositasi sifatida foydalanish sohasidir, xuddi real hayotdan olingan vizual axborotni qayta ishlash. Bundan tashqari kompyuter grafikasini faoliyat natijasi deb ham atashadi.

Kompyuter grafikasi dastavval yaratilgan davrlarda hozirgi kundagi qadar samarali emas edi. O'sha yillarda kompyuterlar rivojlanishning boshlang'ich bosqichida bo'lib, faqat eng oddiy chiziqlarni chizishni ta'minlay olardi.

1950 yilda Massachusets texnologik universitetining Whirlwind-I mashinasida tasvirlarni ekranda ko'rsatuvchi displeyli EHM yaratilgan va foydalanish uchun tasdiqlangani ma'lum. Shu tariqa kompyuter grafikasining paydo bo'lishi 1950 yillar bilan bog'liq. “ Kompyuter grafikasi ” atamasini 1960 yillarda Boeing kompaniyasi xodimi U.Fetter o'ylab topgan. Kompyuter grafikasining birinchi marotaba haqiqatdan qo'llanilish jarayonini Djorj Uitni nomi bilan bog'laydilar.

U 50-60 yillarda kino ishlab chiqarish bilan shug'ullangan va birinchi bo'lib kinofilmlarga titrlar yaratish uchun kompyuterdan foydalangan.

Keyingi bosqich rivojlanishida kompyuter grafikasi nomi Ayven Sazerlend bilan bog'liq, 1961 yilda talaba bo'la turib chizish uchun mo'ljallangan Sketchpad dasturini yaratgan. Dastur chiroqli perodan oddiy shakllarni ekranda chizishda foydalanilgan. Hosil qilingan rasmlarni saqlash va qayta tiklash imkoni mavjud edi.



**1-rasm. Ayven Sazerlendning Sketchpad dasturi (1963)**

Dastlab kompyuter grafikasi vektor ko'inishda shakllangan.

1961 yilda talaba Stiv Rassel birinchi Spacewar ("Звездная война"), nomli kompyuter video o'yinini yaratdi, Bell Labs ilmiy xodimi Edvard Zedjek "Simulation of a two-giro gravity control system" animatsion o'yinini yaratdi.



**2-rasm. Edvard Zedjek "Simulation of a two-giro gravity control system" animatsion o'yini tizimi**

Kompyuter grafikasi sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'pgina yirik korporatsiyalarning qiziqishiga sabab bo'ldi, shu sababli bu sohani texnik jihatdan qo'llab quvvatlashni istovchilar soni ko'payib bordi. Yuta shtati universiteti D.Evans va A.Sazerlendlar tufayli o'sh paytda eng sezilarli shakllardan bo'lgan kompyuter grafikasi rivojlanishi tadqiqotlarining markaziga aylandi. Keyinroq ularning doirasi yanada telik bilan kengaya boshladi. Sazerlendning shogirdi E.Ketmul, Z-buferdan foydalangan holda ko'rinmas yuzalarni o'chiruvchi algoritm yaratuvchisi bo'ldi (1978). Bu sohada Dj.Varnok, bo'limlarga bo'lish asosida ko'rinmas qirralarni o'chirish algoritmini yaratdi (1969) va Adobe System kompaniyasiga asos soldi (1982), Dj.Klark, Silicon Graphics (1982) kompaniyasiga asos soldi. Barcha ushbu tadqiqotlar kompyuter grafikasining algoritmik tomonini juda kuchli rivojlantirdi.

1971 yilda Goldshteyn va Nagel birinchi marotaba uch o'lchovli tasvirlarni shakllantirishda nurlarni trassirovkalash usulidan foydalangan holda mantiqiy amallarni qo'lladilar.

1970 yillarda mikroprotsessorning yaratilganligi tufayli hisoblash texnikasida jadal rivojlanish yuz berdi, natijada kompyuterlarni ixchamlashtirish va ishlab chiqarishni tez suratlarda oshirish ro'y berdi. Aynan shu vaqtda intensive ravishda kompyuter o'yinlarining rivojlanish industriyasi boshlandi. Bir vaqtning o'zida kompyuter grafikasi televideniya va kinoindustriyada keng qo'llanila boshlandi. Dj.Lukas Lucasfilm nomli kompyuter grafikasi bo'limini yaratdi. 1977 yilda "Computer Graphics World" nomli yangi jurnal paydo bo'ldi.

1970-yillarning o'rtalarida grafika ko'proq real tasvirlar tomoniga qarab o'zgara boshladi. E.Ketmul 1974 yilda birinchi marotaba egri chiziqli yuzalarning teksturalari algoritmlarini yaratdi.

1975 yilda bo'yash usuli hisoblanmish Fong usuli paydo bo'ldi.

1977 yilda Dj.Blin realistic tasvirlarning notekis yuzalar (микрорельефлар) algoritmini taklif qildi; F.Krou konturlarni tasvirlashda zinasimon effektlarni bartaraf qilish(антиэлайзинг) usullarini ishlab chiqdi. Dj.Brezenxem rastr tisollarni aylana va ellipsni qirqib olishning samarali algoritmlarini yaratadi.

1980-yillarda kompyuter grafikasi sohasida amaliy ishlanmalar yaratish bilab shug'ullanuvchi bir qator kompaniyalar paydo bo'ldi.

1982 yilda Dj.Klark Silicon Graphics kompaniyasini yaratadi, shunda Ray Tracing Corporation, Adobe System, 1986 yilda Pixar Lucasfilmdan ajralib chiqadi. Shu yillarda kompyuter grafikasi kinoindustriya sohasiga ishonchli tadbiiq etiladi, muxandislik sohaslariga oid ilovalar rivojlana boshladi.

1990-yillarda Internet tarmog'ining paydo bo'lishi bilan kompyuter grafikasida yana bir ilova yo'nalishi paydo bo'ldi.



**3-rasm. Ilk uch o'lchovli mul'tfilm qaxramoni**



Bu yerda kompyuter grafikasining eng muhim rivojlanish bosqichlari yoritib o'tilgan.

### **Kompyuter grafikasi turlari va ularning imkoniyatlari**

Kompyuter grafikasi ma'lumotlarni kompyuterda grafik holda tasvirlashning eng qulay vositasidir. Uning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: tijoratga oid, namoyishlarga oid, muxandislikka oid, ilmiy, ko'rgazmaviy, animatsion.


Tijoratga oid grafika elektron jadvallarda yoki berilganlar bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axborotlar EHM ekranida grafik shaklida, gistogramma, diagramma va hoxlagan boshqa shakllarda aks ettirilishi mumkin, kerakli grafiklar matn izoxlari va ma'lum joylarda belgili izoxlar bilan ta'minlanadi. Tijorat grafikasiga tegishli bo'lgan amaliy dasturlar paketi tasvirni ekranda tezda va kerakli servislar bilan ifodalashga qaratilgan, chunki tijoratchining asosiy maqsadi axborotlarni qayta ishlash jarayonidagi o'zgarishlarni tezda muhokama qilib, tegishli o'zgartirishlar kiritishdan iborat. Tasvirni yaqqolligini yanada oshirish uchun ushbu paketlarga tasvirni ekranda bir necha xil grafika shaklida tasvirlash imkoniyati kiritilgan. Bu esa o'z navbatida tasvirlarni ekranda birgalikda ko'rib, muloxazalash imkoniyatini oshiradi. Bu paketlarni eng ahamiyatli tomoni shundaki, ular tasvirlarni turli xil shaklda berishdan tashqari aks ettirilgan grafiklarni analiz qilish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli bu paketlarga turli xil matematik analiz usullari, shu jumladan statistik analiz, ehtimollar nazariyasi, iqtisodiy jarayonlar bashorati kabi usullar kiritilganki, ular berilgan axborot to'plamini analiz qilish imkonini beradi.

Hamoyish qilish grafikasi - matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarni mashina tasvirini hosil qilib uni namoyishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu erda eng asosiy vazifa - yuqori sifatli va chiroyli ko'rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat. Shu tipdagi grafiklarni eng afzal tomoni shundaki, bunday tasvirlarni to'plami va ko'rinishini tezda o'zgartirish mumkin.

Injenerlik grafikasi - bunday grafika chizmachilik, proektlash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi. Injenerlik grafikasi analiz, sintez,

modellashtirish, matnlashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi proektlashni avtomatlashtirish ishlarini hamma bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ilmiy grafika - ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa japyonlarni tadqiq qilishda qo'llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hocil bo'ladigan axborotlarni vizuallashtirish - ko'zga ko'rinarli shaklda ifodalashdir. Ayniqsa bu yo'nalish atom energiyasi manbalarini tadqiq qilishda, kosmonavtika va samolyotsozlikda, geografiyada va okeanologiyada - xullas qampovi katta bo'lgan, tez kechadigan jarayonlarni o'rganishda juda qo'l keladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, kartalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda keng qo'llaniladi.



**4-rasm. Kompyuter grafikasining turlari**

Ko'rgazmaviy grafika - namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo'lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarini yig'indisi integratsiyasini tashkil etadi. Bu grafika ayrim grafikalarini slaydlar ketma-ketligidan iborat slaydfilm qilib yaratib, so'ngra uni ma'lum vaqt ichida ekranda ketma-ket ko'rgazma shaklida namoyish etadi. Har bir slaydni ekrandagi tasviri ovoz va vizual effektlar bilan qo'shib olib borilishi mumkin. Undan tashqari, tayyor grafikni taxrir qilish imkoniyat ham mavjud.

Animatsion grafika rang bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlarni injenerlik grafikasidagi uch o'lchovli ob'yektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan qo'shib uyg'unlashtirilgan.

Ikki o'lchovli(2D —от англ. Two dimensions — «икки ўлчовли») kompyuter grafikasi grafik axborotni tasvirlash turiga va tasvirni qayta ishlash algoritmiga qarab tavsiflanadi. Odatda kompyuter grafikasini vektor va rastr grafikasiga ajratishadi, lekin grafikani tasvirlashda yana fraktal grafikasi ham mavjud.



### **5-rasm. Vektorli tasvirga misol**

Vektor grafika geometrik primitivlarni tasvirlash to'plamidir. Odatda tasvirlar sifatida nuqtalar, to'g'ri chiziqlar, aylanalar, to'g'ri to'rtburchaklar, bundan tashqari umumiy hollarda to'lqinsimon chiziqlar tanlanadi. Ob'ektlarga ba'zi bir atributlar qo'shiladi, masalan chiziqning qalinligi, to'ldirib bo'yash rangi. Rasm koordinatalar to'plami ko'rinishida saqlanib, vektorlar va boshqa sonlar primitivlar to'plamini xarakterlaydi. Ishga tushirishda berkitiluvchi ob'ektlakning ketma-ketlik qiymati mavjud. Vektor kengaytmali tasvir taxrirlanganda juda chiroyli ko'rinishga ega. Tasvirlar yo'qotishlarsiz masshtablanishi, aylantirilishi, deformatsiyalanishi, bundan tashqari uch o'lchovli imitatsiyani o'zgartirish quyidagicha bajariladi: eski tasvir o'chiriladi va uning o'rniga yangisi qo'yiladi. Vektorli rasmning matematik ta'rifi avvaldagidek qolgan, faqat ba'zi bir o'zgaruvchilar qiymati o'zgartiriladi, masalan, ko'effitsientlar.

Rastrli tasvirlarni o'zgartirishda doimiy ma'lumotlar faqat pikcellar to'plami hisoblanadi, shuning uchun kam hajmli(kattalashtirishda) pikcellarni ko'p hajmli pikcellarga almashtirish (kichkinalashtirishda) muammosi kelib chiqadi. Bitta pikcelni bir necha shu rangdagi rang bilan almashtirish eng oddiy yo'l hisoblanadi(yaqindagi pikselni nusxalash usuli: Nearest Neighbor). Ko'pgina qulay usullar interpolatsiya algoritmlaridan foydalanadi, bu usul yordamida yangi piksellar ba'zi bir ranglarni oladilar va qo'shni pikcellar ranglari kodi asosida kodi hisoblanadi. Ushbu ko'rinishda Adobe Photoshop dasturida masshtablash amalga oshiriladi(bichiziqli va bikubli interpolatsiya).Shu bilan birga har qanday tasvirni

primitivlar to'plami deb tasavvur qilish mumkin. Tasvirlashning bu yo'li sxemalar uchun yaxshi, shriftlarni masshtablashda foydalaniladi, multfilmlar va oddiy roliklar mundarijasini yaratishda keng foydalaniladi.

Rastrli grafika har doim ikki o'lchovli piksellar massivi bilan tasvirlanadi(matritsa ko'rinishida). Har bir pikselga maxsus qiymatlar beriladi - yorqinlik, ranglar, tiniqlik-yoki ushbu qiymatlar kombinatsiyasi. Rastrli obraz bir necha qator va ustunlarga ega. Rastrli tasvirlarni muhim yo'qotishlarsiz faqat kichinalashtirish mumkin, lekin bunda tasvirning ba'zi bir detallari butunlay yo'qolishi mumkin, vektorli tasvirlarda aksincha. Rastrli tasvirlarni kattalashtirish avval piksellar bo'lgan shu yoki boshqa rang kvadratlarini chiroyli ko'rinishda kattalashishi bilan yakunlanadi. Rastrli ko'rinishda har qanday tasvirlarni ko'rish mumkin, lekin saqlashning bu usuli o'zining kamchiliklariga ega: xotiradan katta joy oladi, ish uchun zarur bo'lgan tasvirlarning taxrirlashdan keyin yo'qolishi.

Fraktal - alohida tabiiy strukturaga ega bo'lgan xususiyatli elementlardan iborat ob'yektdir. Kichik masshtabli detalli elementlarni tasvirlash oddiy algoritm bo'yicha amalga oshiriladi, bunday ob'yektni bir necha matematik tengsizlik bilan tasvirlash mumkin. Fraktallar tasvirlarning to'liq sinfini tasvirlashga imkon beradi, detalli tasvirlashga nisbatan kam xotira talab etiladi. Boshqa tomondan fraktallar ushbu sinfdan bo'lmagan tasvirlarda kamdan-kam qo'llaniladi.

Vektorli grafika muxarrirlariga misol qilib Adobe Illustrator, Corel Draw va Macromedia Flash dasturlarni aytish mumkin. Ushbu dasturlarda rasmlar har xil chiziqlar va qiyshiq vektorlardan iborat buladi. Vektorli grafikada yaratilgan rasmlar logotip, illyustratsiyalar va zastavkalar yaratishda foydalaniladi. Rastrli grafika muxarrirlariga misol qilib Adobe Photoshop va Paint dasturlarni aytish mumkin. Ushbu dasturlaeda rasmlar mayda kvadrat - pikcellardan iborat bulib mozaika holatida rasmni hosil qiladi.

Vektorli grafika muxarrirlariga misol qilib Adobe Illustrator, Corel Draw va Macromedia Flash dasturlarni aytish mumkin. Ushbu dasturlarda rasmlar har xil chiziqlar va qiyshiq vektorlardan iborat buladi. Vektorli grafikada yaratilgan rasmlar logotip, illyustratsiyalar va zastavkalar yaratishda foydalaniladi. Rastrli grafika

muxarrirlariga misol qilib Adobe Photoshop va Paint dasturlarni aytish mumkin. Ushbu dasturlarda rasmlar mayda kvadrat - pikcellardan iborat bulib mozaika holatida rasmni hosil qiladi.

Rastrli grafika har doim ikki o'lchovli piksellar massivi bilan tasvirlanadi(matritsa ko'rinishida). Har bir pikselga maxsus qiymatlar beriladi - yorqinlik, ranglar, tiniqlik-yoki ushbu qiymatlar kombinatsiyasi. Rastrli obraz bir necha qator va ustunlarga ega. Rastrli tasvirlarni muhim yo'qotishlarsiz faqat kichkinalashtirish mumkin, lekin bunda tasvirning ba'zi bir detallari butunlay yo'qolishi mumkin, vektorli tasvirlarda aksincha. Rastrli tasvirlarni kattalashtirish avval piksellar bo'lgan shu yoki boshqa rang kvadratlarini chiroyli ko'rinishda kattalashishi bilan yakunlanadi.

### 1.2.- jadval. Rastr va vektor grafikasi imkoniyatlarining solishtirma tahlili

Solishtirish kriteriyalari	Rastr grafikasi	Vektor grafikasi
Rasmlarni tasvirlash usullari	Rastrli tasvirlar ko'p piksellar asosida quriladi	Vektorli tasvirlar buyruqlar ketme-ketligi asosida ta'riflanadi
Haqiqiy dunyo ob'yektlarini tasvirlash	Rastrli rasmlari haqiqiy obrazli ob'yektlarni tasvirlashda samarali foydalaniladi	Vektorli grafika fotografiya rasmi sifatidagi tasvirlarni olishga imkon bermaydi.
Tasvirlarni tahrirlash sifati	Masshtablashda va o'zgartirish jarayonida rastrli rasmlar sifati o'zgarib ketadi	Vektorli tasvirlar o'z sifatini yo'qotmasdan oson o'zgartirilishi mumkin
Tasvirlarni chop etishdagi afzalliklari	Rastrli rasmlari printerlar yordamida oson chop etilishi mumkin	Vektorli rasmlar gohida chop etilmaydi yoki kerakli ko'rinishga ega bo'lmaydi

Rastrli grafikadan raqamli fotosuratlar va skanerdan olingan rasmlar bilan ishlash uchun foydalaniladi.

### Uch o'lchovli grafikaning afzalligi va kamchiligi

Uch o'lchovli tasvirlarning ko'pgina afzalliklariga qaramay grafik loyihalar ishlab chiqishda nazarda tutish lozim bo'lgan kamchiliklardan ham holi emas, 3 D grafikaning kamchiliklariga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

1. Kompyuterning apparat qismiga bo'lgan yuqori talablar: uning operativ xotirasiga, protsessorning ishlash tezligiga va hokazo.;
2. Kameraning ko'rish maydoniga aylanuvchi, sahnaning barcha modellarini yaratishga sarflanadigan ko'p vaqt;
3. Ikki o'lchovli grafikaga nisbatan tasvirlarni yaratishning murakkabligi va erkinligi kamligi. Ob'yektni qalam yoki qog'ozda yoki ekranda 2 D grafika vositalari asosida, ob'yektlar proporsiyasini erkin boshqarish, proporsiya qoidalariga rioya etmaslik. 3 D formatda bu faqat kuchli paketlarda mumkin, hattoki ularda ham qo'shimcha kuchlar va yaratuvchanlik zarur bo'ladi;
4. Sahna tarkibidagi ob'yektlarning o'zaro holatini doimiy kuzatib turish zaruriyati, shu jumladan, 3 D animatsiya yaratishda ham. Chunki 3 D grafika ob'yektlari o'zgaruvchan, ular bir-biriga oson moslashadi va ular o'rtasida keraksiz munosabatlarni nazorat qilish kerak;
5. Oddiy misol keltirish mumkin: animatsiya qaxramoni modeli, stulda o'tirish o'rniga bir yo'la havoda yiqilishi mumkin. Shu sababli ob'yektlar deformatsiyasi qoidalariga rioya etish zarur.

Yassi tasvirlar bilan solishtirganda uch o'lchamli esa bir qancha afzalliklarga ega, hozirgi kungacha o'rganilgan va 3 D texnologiyalarda professionallar tomonidan o'rganilmaganlari ham ko'p, ular qatoriga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

### **Uch o'lchovli grafikaning apparat vositalari**



**6-rasm. 3D printerga misol**

**3D-printer** – bu 3D modellarni raqamli asosda qatlamli usuldan foydalangan holda fizik obyektini yaratish uchun periferik qurilma. 3D-chop etish turli usullarda va

turli xil materiallardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin, lekin ularning barchasini asosida qattiq obyektning qatlamli yaratish (o‘stirish) prinsipi yotadi.

Qatlamlarni yaratish uchun texnologiyalar:

1. Quyuq keramik aralashmalar ham yirik arxitektura modellarini 3D-chop etish uchun o‘zi qotadigan material sifatida qo‘llanilmoqda.
2. Bioprinterlar – eksperimental qurilmalar bo‘lib, ularda shakllantirilayotgan obyektning (ko‘chirib o‘tkazish a‘zosining) 3D-tuzilmasi tirik hujayralardan iborat tomchilardan chop etiladi. Shundan keyin hujayralarning bo‘linishi, o‘sishi va modifikatsiyalanishi obyektning to‘liq shakllanishini ta‘minlaydi.

2013 yilda xitoy olimlari quloq, jigar va buyrakni tirik hujayralardan chop etishni boshlashdi. Xanchjoy Dianzi universiteti tadqiqotchilari “Regenovo” nomli 3D-bioprinterni ishlab chiqdilar. Regenovoni ishlab chiqqan Syuy Mingen o‘shanda bashorat qilgandiki, to‘liq ishlaydigan chop etiluvchi a‘zolar, ehtimolki, yaqin 10-20 yillar ichida yaratiladi. O‘sha yili Belgiyaning Xasselt universiteti tadqiqotchilari 83 yoshli belgiyalik ayol uchun yangi jag‘ chop etdilar. 2016 yilning boshida “Skolkovo” markazining vitse-prezidenti Kirill Kayem habar qildi: “Rossiyaning 3D-printerida chop etilgan qalqonsimon bez laboratoriya sichqoni tanasiga implantantirildi va muvaffaqiyatli ishlamoqda. Ular boshqa a‘zolari ham, gap buyrak haqida, jigar haqida bormoqda, chop etishmoqchi. Bu faqat laboratoriya darajasidadir, lekin bu shu mashinani rivojlantirish imkonini beradi”. Yana chop etuvchi kallakni pozitsiyalashtirishning turli texnologiyalari qo‘llanilmoqda:

- Dekart usuli, bu holda konstruksiyada uchta o‘zaro perpendikulyar yo‘naltiruvchi qo‘llanilib, ularning har biri bo‘ylab yoki chop etuvchi kallak yoki modelning asosi harakatlanadi.
- Uchta parallelogramm yordamida, bu holda uchta radial-simmetrik joylashgan dvigatellar mutanosib ravishda uchala parallelogrammning chop etuvchi kallaklarga qotirilgan asoslarini siljitadi.
- Avtonom, bu holda chop etuvchi kallaklar o‘z shassisiga joylashtiriladi, bu konstruksiya shassini harakatga keltiradigan biron-bir harakatlantiruvchi hisobiga to‘liqligicha siljiydi.

- Aylanuvchi stolli 3D-printer – siljitish uchun chiziqli harakat o‘rniga bir (yoki bir necha) aylanish o‘qlaridan foydalanish.
- Qo‘l bilan, bu holda chop etuvchi kallak ruchka/qalam ko‘rinishida tashkil etiladi, va foydalanuvchi uchlikdan ajaralib chiqayotgan tez qotuvchi materialni qo‘shish kerak deb hisoblagan fazodagi joyga olib keladi. Bu qurilma “3D-ruchka” deb atalib, 3D-printerlarga nisbiy qo‘shish mumkin. Sovutilganda qotadigan teplopolimerlar, va ultrafiolet bilan qotadigan fotopolimerlar qo‘llangan variantlar mavjud.

### **3-D Printer qo‘llanilish soxasi**

Bu uch o'lchovli ma'lumotlarni ko'rish uchun maxsus qurilma. Qog'ozga ustida ikki o'lchovli ma'lumot ko'rsatadi an'anaviy printer, farqli o'laroq, 3D-printer uch o'lchovli ma'lumot, ya'ni ko'rsatish imkonini beradi muayyan jismoniy ob'yektlar yaratish. Texnologiya 3D-matbaa mustahkam modellari bir qatlamli (yetishtirish) yaratish tamoyili hisoblanadi.



**7-rasm. 3D printerning bir turi**

### **3-D printerlar afzalliklari**

Modellarini yaratish an'anaviy usullari ustida bunday qurilmalar afzalliklari yuqori tezlik, oddiy va arzon narxlardagi mavjud. Misol uchun, qo'lda mahsulot murakkabligi qarab bir necha hafta yoki hatto oy, olishi mumkin modelini yaratish. Natijada, juda tayyor mahsulotlar muddatlari oshirish, ishlab xarajatlarini oshdi. 3D-printerlar siz butunlay qo'l mehnati xalos va "inson omili" xos xato ehtimoli bartaraf esa faqat bir necha soat ichida bo'lajak mahsulot modelini yaratish imkonini beradi.




**Arxitektura.**3D-printer yordamida, siz individual binolar yoki uning muhim elementlarini turli, yoki mahallada yoki yo'llar va daraxtlar bilan hovli qishloqning faqat tartibi tartibi mumkin.



### **8-rasm. 3D texnologiyalar arxitekturada**

#### **Geografik axborot tizimlari**

3D-printer yordamida siz uch o'lchovli rang xarita yaratishingiz mumkin, yaqindan landshaft va turli turlarining paydo darajasini ta'minlash quyidagicha:



### **9-rasm. 3D texnologiyalar geografiyada**

#### **Tibbiyot**

Bunday qurilma katta ishlab chiqarish va protez o'rnatish engillashtirish mumkin. 3D-printerlar arizasi operatsiyalarini mas'ul doktori o'rgatish gips adabiyotlarini va bemorning organlarining modellarni yaratish imkonini beradi. Birinchi 3-D printer, yurak bosilgan.

#### **3D-skaner**

3D-skaner – periferik qurilma bo'lib, fizik obyektini tahlil etuvchi va olingan ma'lumotlar asosida 3D-model hosil qiladi. 3D-skanerlar skanerlar usuliga qarab ikki turga bo'linadi:

- Kontaktli, bu usul skanerning o‘rganilayotgan obyekt bilan bevosita tegib turishiga asoslanadi.
- Kontaktsiz.

### **Faol skanerlar**

Faol skanerlar obyektga biror bir yo‘naltirilgan to‘lqinlarni (ko‘pincha yorug‘lik, lazer nuri) nurlantiradi va tahlil uchun uning aksini aniqlaydi. Nurlanish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan turlarga yorug‘lik, ultratovush yoki rentgen nurlari kiradi.

### **Passiv skanerlar**

Passiv skanerlar obyektga hech narsa nurlantirmaydi, uning o‘rniga o‘rab turgan nurlanishni aniqlashga asoslanadi. Shunday turdagi ko‘pgina skanerlar oson bo‘lgan atrofda ko‘rinayotgan yorug‘likni aniqlaydi. Skanerlash metodlari asosida olingan 3D-modellar keyinchalik SAPR vositalari orqali qayta ishlanishi, va keyin tayyorlash texnologiyalarini (SAM) ishlab chiqishda va muxandislik hisob-kitoblarini (SAE) bajarishda foydalanilishi mumkin. 3D-modellarni chiqarish uchun 3D-monitor, 3D-printer kabi vositalar yoki G-kodni tushunadigan frezer stanogi kabilar foydalanilishi mumkin.

### **3 D monitorlar (stereodispleylar)**

Stereodispley – axborotlarni aks ettirish (displey) uchun va tomoshabinda aks ettriliayotgan obyektlarni haqiqiy hajmiy o‘lchamlari haqida illuziya va stereoskopik effekt hisobiga qisman yoki to‘liq voqealarga g‘arq bo‘lish illuziyasini hosil qilishga mo‘ljallangan qurilma.

Stereoskopiya – hajmiy tasvirni shakllantirishning usullaridan biridir. “Stereodispley” va “uch o‘lchamli displey” tushunchalarini tenglashtirish to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Stereodispley uch o‘lchamli displey bo‘ladi, lekin har doim ham uch o‘lchamli displey stereoskopik displey bo‘lavermaydi. “Hajmiylik” va “stereoskopiklik” atamalarining mazmunining farqlanishiga qaramay chiqarilayotgan grafik axborotga nisbatan “uch o‘lchamli” ta‘rifini o‘zi OAV da “3D” atamani stereoskopik texnologiyaga ham, yana (psevdo) uch o‘lchovli (hajmiy) kompyuter grafikasiga nisbatan qo‘llash bilan bog‘liq. Haqiqatda uch o‘lchovli tasvir hosil qilishga imkon beruvchi yagona metod gologrammadan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Gologramma hosil qilish uchun lazer zarur. Bitta gologrammani hosil qilish – bu yetarlicha uzun muddatli jarayondir. Lekin gologramma mikrostrukturasini (millimetrga 6000 ta chiziq) mavjud elektron usullar yordamida yozishning ham, qayta tiklashning ham imkoni yo‘q. Gologrammaning 1 mm<sup>2</sup> (ko‘z qorachig‘ining minimal o‘lchami ekranning oqilona o‘lchami sifatida kabi) dan uzatilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar oqimi taxminan o‘ta yuqori ravshanlikdagi 8K UHD TV televideniya oqimiga mos keladi, shuning o‘zi muammo. Ranglilikni hisobga olinsa ma’lumotlar oqimi 3 marta ortadi.

### **Uch o‘lchovli displeylarning ko‘rinishlari**

- Stereoskopik 3D-displeylar har bir ko‘z uchun tasvirlarni alohida shakllantiradi. Bunday prinsip, XIX asrning boshlaridan ma’lum bo‘lgan, stereoskoplarda qo‘llaniladi.
- Hajmiy displeylar biror bir hajm chegarasida turli yorqin nuqtalarni ko‘rsatish uchun fizik mexanizmlardan foydalanadi.

### **Stereoskopik displeylar**

Stereoskopik displeylar ikki turga bo‘linadi: **avtostereoskopik** displeylar – mustaqil ravishda kerakli ko‘zga nurning zaruriy oqimini yo‘naltirish yo‘li bilan stereoeffekt shakllantira oladigan va bosh yoki ko‘z uchun (stereoko‘zoynak yoki virtual voqelik shlemlari kabi) qo‘shimcha aksessuarlarga ehtiyoj talab etmaydigan displeylar. Odatda, buning uchun nurtaqsimlagich vazifasini bajaruvchi Frenel mikrolinzalari, va tomoshabinni har bir ko‘zi faqat o‘zi uchun atalgan piksellar ustunini ko‘rishi uchun maxsus baryerli to‘rlar qo‘llaniladi. Bu metodning ko‘pgina kamchiliklari bor bo‘lib, xususan, tomoshabinni kerakli rakursdan chiqishi yoki chegaralangan “xavfsiz ko‘rish zonasi”dan chiqib ketishi stereo effektini buzishga olib keladi, tasvirning gorizonta bo‘yicha imkoniyati anchagina kamayadi. Bu ravshanlik yo‘qotishlarini o‘rnini qo‘shimcha detallashtirish asosida to‘ldirish mumkin, masalan, UHD TV televizorlarida qulay ko‘rish zonasi anchagina keng, albatta, 3D tasvirlar sifati 720p gacha tushib ketadi, faqatgina 8K matritsali televizorlar 3D-tasvirga FullHD ni beradi. Stereodisplay ishlab chiqaruvchilari kamchiliklarni bartaraf etuvchi texnologiyalarni ishlab chiqmoqdalar. Philips va NewSight ko‘prakursli displeylar texnologiyasini ishlab chiqishdi – WOWvx va MultiView. SeeReal Technologies

kompaniyasi, o'z navbatida, o'z displeylariga tasvirni kerakli ko'rish burchagiga moslashtirish uchun siljuvchi nurtaqsimlagich va tomoshabin boshi holati detektorini joylashtirishmoqda. Nur maydonini tiklashni istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qarash mumkin. Bunda asl epizodning nur maydonini ma'lum miqdordagi aniqlik bilan tiklashadi. Bu texnologiya ta'siri gologrammani ko'rishni eslatadi. Epizod obyektlarini turli rakurslardan kuzatuvchining holati o'zgarganda keskin o'zgarishlarsiz tomosha qilish mumkin.

High-Rank 3D Display using Content-Adaptive Parallax Barriers texnologiyasida hajmiy tasvirni shakllantirish uchun biri ikkinchisidan oldin turgan ikkita LCD-display va murakkab dasturiy ta'minot qo'llanadi.

Hajmiy tasvirlarni shakllantirishning yana bir qiziqarli yechimi sifatida Philips kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan 2D+Z formati bo'lib qolishi mumkin. Z kanali chuqurlik xaritasi kabi bo'lib o'zida monoxrom rasmni mujassamlagan. Muvaffaqiyatli izohini quyidagidan topish mumkin: формат 2D + Z. Formatni hosil qiluvchi bu kanaldan ko'prakursli sistemalarda qo'shimcha tasvirlarni hisobga olishda foydalanadi.

Bir qancha firmalarning zamonaviy 3D-displeylari ikkinchi LCD-displeyning chap va o'ng kanallarini bo'lishdan foydalanadi, ulardan ikkinchisi tirqish rastrini teletomoshabinning holatiga moslashtirishga mo'ljallangan. Quyidagidan bu haqida to'liqroq ko'rishingiz mumkin: стереоскопические 3D-дисплеи. Piksellar massividan boshqa maqsadda foydalanishga imkon beruvchi texnologiyalar mavjud. Ulardan biri – golografik optik elementlardir (Holographic Optical Elements — HOE). LCD-panel oldiga mitti gologrammalardan iborat plyonka joylashtiriladi. Har bir gologramma bir pilselni qamrab oladi va o'tayotgan nurni berilgan yo'nalishlardan biriga yo'naltiradi. Ekran konstruksiyasini sezilarsiz o'zgartirilishi hajmiy tasvirlarni shakllantirish metodini o'zgartirishga imkon beradi.

Ikkita LCD-display va golografik elementli plyonkani qo'llash hajmiy tasvirlarni hosil qilishning prinsipial jihatdan boshqa usuli yo'lidagi muhim qadam bo'lishi mumkin. Birinchi ekranga oddiy ikki o'lchovli tasvir chiqariladi, kirish va chiqishida qutblarsiz bo'lgan ikkinchi LCD-display birinchi ekran sababli qutblangan yorug'likni chuqurlik xaritasiga proporsional bo'lgan burchakka buradi. Golografik elementlar

yorug'likni sinish koeffitsiyenti qutblanish burchagiga bog'liq bo'lgan mikrolinzalar vazifasini o'taydi. Bunday texnologiyani qo'llanishi epizod obyektlarini vizual "yaqinlashtirish" va "uzoqlashtirish" imkoniga ega. Ko'z yaqin va uzoq obyektlar fokuslariga to'g'rilana oladi:

- ko'rish stereoeffektini hosil qilish uchun qo'shimcha qurilmalarni (ko'zoynaklar) talab etuvchi displeylar. Qo'shimcha qurilmalar (3D-ko'zoynakalar) ikki xil ko'rinishga bo'linadi:

- passiv ko'zoynaklar – boshqaruv signalini va quvvat elementlarini (aktiv ko'zoynaklardan farqli ravishda) talab etmaydigan ko'zoynaklar. Rakurslarni bo'lish uchun qutblangan yorug'likdan foydalaniladi. Bunday qurilmalar ikki turga bo'linadi:

- chiziqli qutbli qutblashtirilgan ko'zoynaklar. IMAX kinoteratrlarida qo'llaniladi. Maxsus ekranda bir vaqtda chap va o'ng ko'zlar uchun ikkala tasvir shakllantiriladi. Turli ko'zlar uchun turli tasvirlarni o'tkazib yuboradi. Qutblashgan ko'zoynaklarda tasvir yorqinligini pasayishi taxminan 24% ni tashkil etadi, tasvir imkoniyati o'zidagicha qoladi (ikkita SK-panelli Planar va StereoPixel sistemalar uchun yoki ikki marta kamayadi (Zalman));

- doiraviy qutblashgan qutblashtirilgan sistema (ekran+ko'zoynak). Monitor ekranida tasvirning har bir satri o'tkazilayotgan yorug'likni soat strelkasi bo'yicha yoki soat strelkasiga qarshi qutblaydi (sirkulyar yoki doiraviy qutblashtirish). Ko'zoynaklar ham har bir oynasida huddi shunday doiraviy qutblashtiruvchiga ega. Shu asnoda har bir ko'z uchun satrlararo tasvir hosil qilinadi. Tasvirning yorqinligi bosh katta og'ganda ham pasaymaydi. Asosiy ishlab chiqaruvchi – LG;

- aktiv ko'zoynaklar – displey bilan sinxronlashtirilgan va displeyning har bir ko'z uchun chiqargan tasvirga (kadruga) mos chastotaga ko'ra navbat bilan qoraytiriladigan chiziqli qutblashgan zatvorli ko'zoynaklar (suyuqkristalli yoki qutblashtirilgan). Inersiya effekti hisobiga tomoshabin miyasida to'laqonli tasvir hosil bo'ladi (har bir ko'z uchun tasvirni yangilanish chastotasi 60 Gsni tashkil etgan ikkilangan 120 Gs razvertkali displey bo'lgani maqsadga muvofiq). Zatvorli ko'zoynaklar uchun tasvir yorqinligini pasayishi taxminan 80% ni tashkil etadi (boshning og'ishi 30°).

Kesishishdagi buzilishlar passiv ko‘zoynaklarga nisbatan ko‘p. Tasvir imkoniyati har bir ko‘z uchun o‘z holicha qoladi. Asosiy ishlab chiqaruvchi – Samsung.

Eng katta nurlidiodli 3D-televizor ukrainaning EKTA kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilib, Gyoteborg (Shvetsiya) klubida 28 may 2011 yilda UEFA chempionlar ligasining final matchini bevosita translyatsiyasida foydalanilgan. Videotranslyatsiyani Viasat-Shvetsiya kompaniyasi olib borgan. Jahon rekordi Ginnesning rekordlar kitobida qayd etilgan.

### **Hajmiy displeylar**

“3D-displey” atamasi hajmiy yoki vokselli deb ataluvchi displeylar uchun ham qo‘llanadi. Bunday displeylarda hajmiy tasvir biror o‘lchamli hajmdagi nur chiqaruvchi nuqtalar (turli fizik mexanizmlar asosida) shakllantiriladi. Bunday displeylar piksellar o‘rniga voksellar bilan ish ko‘radi. Hajmiy displeylar turli prinsiplar asosida yasaladi. Masalan, ko‘plab tekisliklardan (tekisliklar biri ikkinchisi ustida joylashib tasvir hosil qiladi), bitta tebranuvchi tekislik, aylanuvchi tekis yoki egrichizikli panellardan yasalishi mumkin. Tebranuvchi tekisliklar va aylanuvchi panellardan yasalgan displeylarda 3D-effektini hosil qilish uchun ko‘rish inertsiya effekti qo‘llanadi. Harakatlanayotgan (tebranayotgan yoki aylanayotgan) sirt o‘z harakat siklida tasvir egallagan butun hajmni aylanib o‘tadi. Tomoshabin sirtning barcha holatini bir vaqtdadagi kabi qabul qiladi, bitta sirt o‘rniga jismni ko‘radi.

Hozirgi kunda quyi imkoniyatli nurlidiodlar (jumladan, 16 million tusdagi rang hosil qilish imkonini beruvchi uch rangli (RGB)) asosida yasalgan, sodda 3x3x3 (monoxrom), va ulkan o‘lchamli va imkoniyatli bu kabi displeylar tarqalmoqda. Bunday eng katta displey Syurix (Shvetsariya) temir yo‘l bekatida joylashgan. Uning o‘lchamlari – 5x5x1 metr, 25000 ta yonuvchi (har biri 16 million rang tusini beruvchi) sferadan iborat, yangilanish chastotasi 25 Gs.

### **Perspektivalar**

Stereodisplaylarni har xil turlarini ishlab chiqarish bilan ko‘pgina kompaniyalar shug‘ullanmoqda, shular jumlasidan: Alioscopy, Apple, 3D Icon, Dimension Technologies Inc., Fraunhofer HHI, Holografika, i-Art, NewSight, StereoPixel, DDD,

SeeFront, SeeReal Technologies, Spatial View Inc., Tridality, VisuMotion, Zero Creative (xyZ).

2008 yil oktyabrda Philips kompaniyasi ekran imkoniyati 3480x2160 nuqtali va rekord hisoblanadigan “xavfsiz” tomosha qilishning 46 rakursli stereodisplayini tavsiya qildi. Shundan sal vaqt o‘tib kompaniya stereodisplaylar sohasidagi izlanishlar va ishlab chiqarishni to‘xtatganligini e‘lon qildi.

2010 yil aprelida Samsung Electronics kompaniyasi Rossiyaning Kaluga viloyatidagi korxonasida 3D-televizorlarni konveyerli ishlab chiqarishni boshladi.

2010 yil sentayabrda LG kompaniyasi 3D-display bilan jihozlangan birinchi noutbukini taqdim etdi .

2010 yil oktyabrda Toshiba kompaniyasi 3D-display bilan jihozlangan maxsus ko‘zoynaklar talab qilmaydigan televizorlarini ishlab chiqardi. Yangi texnologiyada displayning oldingi qismida yupqa linzalar qo‘llanilgan. Linzalar tasvirni ekrandan ajratadi va TV ning oldidagi 9 ta tayanch nuqtasiga yo‘naltiradi. Uch o‘lchovli effekt tomoshabin shu nuqtalardan biriga qaraganida hosil bo‘ladi. Hozirgi kunda bunday avtostereoskopik texnikalar faqatgina kichik burchakdagi ko‘rinish uchungina uch o‘lchovlilik illyuziyasini saqlay oladi (50 gradusdan oshmagan). Bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni bozordagi barcha yirik o‘yinchilar olib borishmoqda.

### **Xavfsizlik va sog‘liqqa ta’siri**

Sony kompaniyasi 3D-filmlar va 3D-o‘yinlarni ko‘rishda qo‘shimcha noxush (bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi va boshqa) effektlar borligini tan oldi hamda bolalarni, ayniqsa 6 yoshgacha bo‘lganlarini, bu ermaklardan chegaralashni tavsiya etdi. Undan oldin shu kabi ogohlantirishni Samsung kompaniyasi e‘lon qilgan edi. Unda stereokino ta’siridagi undan ham ko‘p noxushliklar sanab o‘tilgan bo‘lib, ko‘rishning yomonlashishi, muskul titrashi, bosh og‘rig‘i va dezoriyentatsiya ham qo‘shilgan. Tomoshadan keyin bo‘yinni sindirib olmaslik uchun 3D-televizorlarni zinapoya va balkonlar yaqinida joylashtirmaslikni tavsiya etishadi. Mast yoki homilador vaziyatlarda 3D-video tomosha qilishni tavsiya etishmaydi.

## Eng yaxshi 3D-monitorlar: virtual voqelik revolyutsiyasi

Ommaviy foydalanuvchi uchun kompyuter texnikasi taraqqiyoti hisoblash quvvatining o'sishi ko'rinishida emas, balki monitordagi tasvirning yaxshilanishi yo'lidagi o'sishi ko'rinishida bo'lishi ko'proq ravshan edi. Ekran imkoniyatining o'sishi, aks etiriladigan ranglarning ortishi, vizuallashtirishning yangi texnologiyalarini joriy etilishi... Kompyuter grafikasidagi oxirgi eng katta ommaviy revolyutsiya 1990-yillarning o'rtasida ro'y berib, tekis piksellar poligonlar tomonidan siqib chiqarildi. Shundan keyin ancha vaqt o'tgan bo'lsada yangi sakrashlar ro'y bermadi. Faqat yaqindagina rivojlanish yo'nalishi tushunarli bo'ldi: bu safar ham ular aks ettirish qurilmalari bilan bevosita bog'liq.

### 3D-o'tmish

Aytib o'tish joizki, ommaviy kompyuter bozorida stereotasvirlarni hosil qilish texnologiyalari va qurilmalari o'yinlardagi poligonal grafika bilan taxminan bir vaqtda – 1990-yil o'rtalarida paydo bo'ldi. Bulardan 90% holda yoki ikkita mini-display o'rnatilgan virtual voqelik shlemi yoki ulkan virtual voqelik ko'zoynagi bo'lib, ular ham, umuman olganda, shlemni kabi edi – faqatgina yengillashtirilgan va soddalashtirilgan.



**10-rasm. 3D monitorga misol**

Stereoqurilmalarning birinchi avlodiga yetarlicha talab bo'lmagan – bunga bir qator sabablar bor. Birinchidan, ishlanmalarning deyarli barchasi o'z qobig'iga o'ralib olgan bo'lib, ularga bo'g'liq komplektlarni (videokarta, monitor) ishlab chiqaruvchilar bilan aloqa qilishga harakat ham qilmagan edi. Ikkinchidan, texnologiyalar ham yetarlicha rivojlanmagan va qurilmalar texnik xarakteristikalari, yumshoq qilib aytiladigan bo'lsa, yuqori emas edi. Uchinchidan, qurilmalarning narxlari juda yuqori edi – avvalgi ikkita sababga ko'ra, yana qurilmalar bilan mutanosib bo'lgan o'yinlar



deyarli juda kam bo‘lganini hisobga olinsa, birinchi avlodni boshi berk ko‘chaga olib kirdi. Tarqoq holdagi turli xil stereoeffekt illuziyasini hosil qiladigan gadjetlarni ishlab chiqarishga urinihlarni ikkinchi avlodga yo‘yish mumkin. Uch o‘lchovli vizuallash texnologiyasining ommaviy bozorga chiqishini uchinchi urinishini Nvidia kompaniyasi nomi va uning 3D Vision texnologiyasi bilan bog‘liq. Uning muvaffaqiyati haqida gapirishga hali erta, lekin kamdan kam odamgina ommaviy stereoskopik qurilmalar davri kelganligi haqidagi faktga shubha bilan qaraydi.

### 3D Vision

NVidia kompaniyasining 3D Vision texnologiyasi – bu kompleks yechim bo‘lib, unga dasturiy ta‘minot, maxsus qurilmalar (aktiv turdagi zatvorli ko‘zoynaklar), NVidia ishlab chiqargan videokartalar (GeForce 8-seriyasidan kuchsiz bo‘lmagan) va texnologiya bilan moslangan monitorlar kiradi. 3D Vision ishi natijasida monitor ekranida tasvir hosil bo‘lib, u qutblashtirilgan ko‘zoynaklar tomonidan hajmiy kabi qabul qilinadi. Bu biz tomonimizdan binokulyar ko‘rishimiz yordamida tasvirni haqqoniyligini sezilarli oshiradi, tabiiy obrazga yaqinlashtiradi.

3D Vision texnologiya doirasida monitorlarga bo‘lgan asosiy talablarga tasvirni yangilanish chastotasi 120 Gers bo‘lishligi kiritilgan bo‘lsa ham, mos modellarning aniq bir ro‘yxati mavjud. Bu ro‘yxat hozircha yetarlicha qisqa, lekin u qiziqayotgan istemolchi uchun taklif etilgan.

Modeli	<u>Acer GD245HQ</u>	<u>ASUS VG236H</u>	<u>LG W2363D</u>	<u>Samsung SyncMaster 2233RZ</u>	<u>ViewSonic FuHzion VX2268wm</u>
Diagonali	23,6 dyum	23 dyum	23 dyum	22 dyum	22 dyum
Ekran imkoniyati	1920x1080	1920x1080	1920x1080	1680x1050	1680x1050
Texnologiya	3D Vision	3D Vision	3D Vision	3D Vision	3D Vision
Xossasi	O‘ziga xos dizayn	Ikki kanalli DVI-kirish	Maxsus xolatlar	Rasmiy monitor World CyberGames 2010	O‘rnatilgan kolonkalar, Ikki kanalli DVI-kirish
Narxi	15000 rubl	16000 rubl	16000 rubl	13500 rubl	13000 rubl

Keng formatli (tasvir tomonlari proprsiyasi 16:9) monitor Acer GD245HQ – 3D-monitorlarning 3D Vision texnologiyasi bilan mutanosib bo‘lgan birinchi vakillardan. Bu 23,6 dyumli monitor uy sharoitida o‘yin platformali va multimediyali media-markaz

doirasida qo‘llashga mo‘ljallangan. Muhim detali sifatida Acer GD245HQ ning oddiy bo‘lmagan dizayni hisoblanadi – aniqrog‘i, parallel-perpendikulyarlik paradigmadan farqli, bir nechta rangli (qora va to‘q sariq) plastikning birlashtirilishi va chiziqlardir. Bu monitorga birmuncha agressivlik qiyofasini beradi, bu, o‘ylaymizki, sotib oluvchilar tomonidan yuqori baholanadi.



**11-rasm. Acer GD245HQ 3D monitoriga misol**

Acer GD245HQ ning texnik xarakteristikalarini o‘yin va multimediya uchun uy monitorlariga xos zamonaviy standartlarga mos keladi: matritsa imkoniyati 1920x1080 ta nuqta, ravshanligi 8000:1 darajasida e‘lon qilingan, javob berish vaqti – 2 millisekund. Monitorida 3 ta videochiqish bor: DVI, HDMI va VGA, quvvat bloki ichiga o‘rnatilgan. Acer GD245HQ konstruksiyasi foydalanuvchiga ekranni markaziy o‘qdan chetlashtirishga imkon beradi. 3D Vision texnologiyalarda ishlay oladigan barcha monitorlar kabi Acer GD245HQ tasvirni 120 Gers chastota bilan yangilay oladi – ya’ni stereoholatda standart 60 gersga o‘zgaradi.

Acer GD245HQ da stereoholatning o‘zi test o‘yinlariga voqeiylikni birmuncha xissini qo‘shib manzarali va ishonarli kabi ko‘rinadi. Monitor menyusi ruslashtirilgan, demakki, foydalanuvchi uchun Acer GD245HQ bilan muammo bo‘lmaydi.

ASUS kompaniyasi kompyuter bozorida hurmatga ega. Tabiiyki, u ham tendensiyadan chetlab o‘ta olmagan va 3D Vision texnologiyani ko‘tara oladigan o‘zining modelini chiqargan – ASUS VG236H. Bu klassik dizaynga ega 23 dyumli monitor bo‘lib, uy sharoitida ishlatishga mo‘ljallangan. ASUS VG236H da matritsa tomonlari nisbati 16:9 ga teng, ekran imkoniyati esa – 1920x1080 ta nuqta. Monitorida tasvirni tezkor yangilashning Trace Free II texnologiyasi qo‘llangan bo‘lib, GtG o‘tish

tezligida 2 millisekund darajasida ASUS VG236H ga 120 gers imkoniyatini beradi. Monitorning ekran ravshanligi 100000:1 kabi e'lon qilingan. ASUS VG236H ning muhim o'ziga xos xususiyati ikki kanalli DVI-kirish bo'lib, monitorga stereoskopik videoyozuvlarni aks ettirish imkonini beradi. Monitor yana HDMI va YpbPr videochiqishlarga ega.



**12-rasm. Asus VG236H 3D monitoriga misol**

Testlash shuni ko'rsatdiki, ASUS VG236Hning tasvir bilan muammosi bo'lmaydi – standart holda ham, stereoholatda ham. Yanada qulay bo'lishi uchun monitor ekрани o'qi atrofida 150 gradusga aylanishi va qo'shimcha 15 gradusga og'dirilishi mumkin.

ASUS VG236H o'ziga xos vazifalaridan ichiga o'rnatilgan rang uzatishning optimallashtirish sistemasi ASUS Splendid Video Intelligence ni ta'kidlash joiz, balki ushbu monitorning foydalanuvchilariga kerak bo'lar.

Vizuallashtirish - kompyuter grafikasi eng muhim mavzularidan biri, va amalda u yaqinda boshqalar bilan bog'liq bo'ladi. Odatda, uch o'lchamli modellashtirish va animatsiya paketlar, shuningdek, vazifasini ko'rsatuvchi o'z ichiga oladi. Alohida dasturiy mahsulotlar mavjud. Maqsadiga qarab, kompyuter o'yinlari va video yaratish uchun, birinchi navbatda, ishlatiladigan va real vaqtda ko'rsatish tasvirlashning bir jarayoni. Kompyuter o'yinlarida ko'pincha 3d-tezlashtirgich ishlatiladi. Kompyuter dasturlari rendering ishlab chiqishini render yoki renderer deb ataladi.

3D Studio Max grafik dasturida alternativ vizualizatorlar (V-ray, Mental Ray) ishlatiladiki, ular ob'yektlardan yorug'likni aks etishi va sinishi bilan bog'liq real fizik jarayonlarni hisoblab chiqish imkonini beradi. Ushbu vizualizatorlar realistik ob'yektlar yaratish uchun o'zining shaxsiy andazali materiallariga ega. Bundan tashqari, Internet orqali metal, oynali va boshqa sirtlar uchun tayyor relaistik materiallarni topish va ularni o'zimiz yaratayotgan sahnada foydalanish mumkin.

Vizuallashtirish (Rendering) o'zida yaratilgan sahnaning barcha 260 parametrlari hisobga olingan rastri tasvir, videolavha yoki ssenariyning matnli faylini namoyon etadi. Shu sababli proeksiya oynalarida yorug'lik manbalarining soyalari, murakkab materiallar va muhit effektlari ko'rsatilmaydi. Sahnaning murakkabligiga bog'liq ravishda vizuallashtirish parametrlari variatsiyalanadi (tasvirning oxirgi faylini yaratish jarayonini tezlatish uchun). Vizuallashtirishni boshqarish tugmalari uskunalar panelining o'ng qismida joylashgan (Toolbar). Vizuallashtirish vaqtida vizuallashtirishning joriy holatini nazorat qiluvchi Rendering oynasi paydo bo'ladi. Oynaning yuqori qismidagi ikkita lineyklar Total Animation (Barcha animatsiya) va Current Task: Rendering Image (Joriy vazifa: Tasvirni vizuallashtirish) vizuallashtirish jarayonining borishini aks ettiradi. Rendering Progress (Vizuallashtirish jarayoni) qism menyusida joriy vizuallashtirilayotgan kadr (Frame) eks etadi, shuningdek vizuallashtirishning boshlanishi va yakunlanish vaqtining taxminiy hisobi bajariladi. Quick Render (Tezkor vizuallashtirish) tugmasi bosilganda Frame Window (Freym) oynasida tasvirning vizuallashtirish amalga oshadi beradi. Ushbu oyna yordamida olingan tasvirni grafik fayl ko'rinishida (Save Bitmap tugmasi (Rastr tasvirlarni saqlash)) saqlash, vizuallashtirish natijalarini taqqoslash uchun mazkur oynaning dublikatini yaratish (Clone Render Frame Window (Freymni takrorlash) tugmasi), shuningdek turli rang kanallarini ko'shish va olib tashlash mumkin. Quick Render (Tezkor vizuallashtirish) tugmasi o'zida suriladigan panelni ifodalaydi, ikkinchi buyruq real vaqt rejimida Frame Window (Freym) oynasida materiallarning o'zgarishini ko'rib chiqish imkonini beradi. Render Type (Vizuallashtirish tipi) ro'yxati vizuallashtirishning turli variantlarini tanlash imkonini beradi:

1. View (Ko'rinish) – proeksiyaning faol oynasida vizuallashtirish.
2. Selected (Belgilangan) – tanlangan ob'yektlarni vizuallashtirish.
3. Region (Soha) – vizuallashtirish tugmasi bosilganda, faol ko'rinish ekranida kesuvchi ramka paydo bo'ladi, uning yordamida vizuallashtiriladigan soha belgilab olinadi.

4. Crop (Kesib olish) – Frame Window (Freym) oynasida tanlanmagan qismni keyinchalik kesib olish orqali belgilangan sohani vizuallashtirish.
5. Blowup (Kuchaytirish) – tanlangan soha vizuallashtirishning barcha oynasini o‘zida to‘ldiradi.
6. Box Selected (“Parallelepiped” tipida belgilash) – belgilangan ob’yektlarni vizuallashtirish. Vizualashtirish tugmasi bosilganda tasvirning kengligi (Width) va (Height) balandligi o‘lchamlarini so‘rovchi oyna paydo bo‘ladi.
7. Region Selected (Belgilangan soha) – belgilangan ob’jekt atrofida sohani vizuallashtiradi.
8. Crop Selected (Belgilanganlarni kesib olish) – belgilangan ob’jekt bo‘yicha sohani kesib olish.

### **Vizuallashtirish parametrlarini o‘zgartirish**

Render Scene Dialog (Sahnani vizuallashtirish) tugmasi bosilganda (yoki bosh menyuning Rendering (Vizuallashtirish) bandidan, Render buyrug‘i tanlanadi) Render Scene (Sahnani vizuallashtirish) oynasi paydo bo‘ladi. Bu oynada vizuallashtirish tezligi/sifati tushunchalari

bilan turlanadigan parametrlarni o‘zgartirish mumkin. Render Scene (Sahnani vizuallashtirish) oynasi beshta sahifadan tarkib topgan:

1. Common (Umumiy sozlashlar) – vizuallashtirishning asosiy sozlashlari.
2. Renderer (Vizualizator) – tanlangan vizualizator parametrlarini o‘zgartirish sahifasi.
3. Render Elements (Elementlarni vizuallashtirish) – bu sahifa sahnadagi alohida elementlarni (soylar, ob’yektlarni aks ettirish va b.) vizuallashtirish imkonini beradi. Vizualashtirishdan so‘ng tanlangan elementlar berilgan alohida oyna paydo bo‘ladi.
4. Raytracer (Yo‘nalishni belgilash) – yorug‘lik nurining yo‘nalishini belgilash metodini o‘zgartirish parametrlarini nazorat qiluvchi sahifa.
5. Advanced Lighting (Kuchaytirilgan yorug‘lik) – global yoritilganlik (Global Illumination) parametrlari. Common Parameters bo‘lmasining Common

sahifasida quyidagi parametrlarni ko'rsatish mumkin:

1. Time Output (Chiqish vaqti) qism menyusi vizuallashtirish kadrlari sonini ko'rsatish imkonini beradi: Single (bitta kadr); Active Time Segment (vaqtning faol segmenti) – ayni vaqtda foydalaniladigan kadrlar soni; Range (Diapazon) – kadrlar ixtiyoriy sonda beriladi (masalan: agar jami animatsiya 200 kadrдан iborat bo'lsa, 50 dan 115 gacha kerak bo'lgan animasion parchani vizuallashtirish mumkin va b.); Frames (Freymlar) – tanlanma kadrlarni vizuallashtirish.

2. Output Size (Tasvir o'lchami) qism menyusi tasvirning kerakli o'lchamini piksellarda berish imkoniyatini yaratadi. Tushuvchi ro'yhatdan oldindan tayyor foto va video standartlarni tanlash (masalan: turli ko'rinishdagi kinoplyonkalar, televizion ruxsatlar va b.) mumkin. Aperture Width(mm) (Kamera aperturasi kengligi) parametri kameraning fokus masofasi va ko'rish maydoni munosabatlarini o'zida ifodalaydi va standart ruxsatlarni tanlaganda o'zgaradi. Standart variantlardan tashqari tasvirning kengligi (Width) va balandligini (Height) o'zgartirish orqali o'lchamlarni qo'lda o'rnatish (Custom bandi) mumkin. Tasvir kengligining balandlikga nisbati Image Aspect (Mutanosiblik koeffitsienti) parametrining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi.

Proeksiya oynalarining ixtiyoriy birida vizuallashtirilayotgan tasvirning berilgan o'lchamlarini ko'rish uchun, proeksiya oynasi nomi ustiga sichqonchaning o'ng tugmasi bosish va Safe Frame (Havfsiz kadr) buyrug'ini tanlash zarur.

3. Options (Opsiyalar) qism menyusida turli xil parametrlar beriladi: Render Hidden Geometry (Yashiringan ob'yektlarni vizuallashtirish); Force 2-Sided (Ikkala tomon sirtini vizuallashtirish) va b.

4. Render Output (Tasvirni chiqarish) qism menyusi vizuallashtirish natijasini faylga yozish imkonini beradi. Buning uchun Files ... (Fayllar ...) tugmasini bosish, so'ngra faylni qaerga yozish kerakligini, fayl nomi va formatini ko'rsatish lozim.

### **Rendering usullari(Vizuallashtirish)**

Bugungi kunda turli xil algoritmlar ishlab chiqilgan. Mavjud dasturiy ta'minotlar bir nechta algoritmlarni uz ichiga olib yakuniy tasvir hosil qiladi.Sahnasida yorug'lik

har rasm tahrirlovchisi amaliy va bir qabul qilinishi mumkin emas, uzoq vaqt talab etadi. Agar taxminiy (masal) foydalanish bo'lmasa tasvirni qabul qilish uchun etarli ta'qib qilish nurlarining Hatto kichik miqdorda, juda ko'p vaqt talab etadi. Natijada, ishlab chiqilgan va sahna nurli yorug'lik barcha nurlar modellik ko'proq bulishi uchun to'rt guruh yaratildi:

Rasterization (Engl. Rasterization) skanerlash hamda qatorni ko'rish usuli bilan (Scanline rendering (Eng.)). Visualizatsiya kuzatuvchiga nisbatan hisobga olmasdan ekranda sahnada moslamalarni loyihalash tomonidan amalga oshiriladi.

Ray casting- sahna -ma'lum bir nuqtadan kuzatilishi sifati hisoblanadi. Sahnada ob'yektlar bo'yicha kuzatuv nuqtasi kelgan piksel rangi ikki o'lchovli ekranda belgilanadi. Ular har qanday ob'yekt yoki uning fon voqeani etib Shunday qilib nurlari (teskari kuzatish usuli farqli o'laroq), uning tarqalish to'xtasalar. Siz optik effektlarni kiritish uchun har qanday juda oddiy yo'llarini foydalanishingiz mumkin. tashlangan nurlar ekranda piksel va kamera nuqtai maksimal burchak lavozimiga qarab burchak ostida paytida istiqbollari ta'siri tabiiy yo'l bilan qo'lga kiritiladi.

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Biror bir sodda ob'yektni modellashtiring uni Setkey va Autokeylardan foydalanib oddiy bir animatsiya yarating, animatsiyalangan modelga standart materiallardan qo'llang. Turli xil va holatda joylashgan ob'yektlarga soya berib ko'ring.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ob'yektni uch o'lchovli modelini yaratish uchun uning sirtidagi xarakterli nuqtalar qanday aniqlanadi?
2. Splaynlar qanday vazifani bajaradi?
3. Render deganda nimani tushunasiz?
4. Render jarayonini amalga oshirish bosqichini sanab bering?
5. Ray casting nima?
6. Renderingning qanday usullari mavjud?
7. Nurlar trassirovkasi nima?


## **5-Ma'ruza. Yorug'lik va uning asosiy komponentlari. Sahnalarni yoritish**

### **Reja:**

1. Kompyuter grafikasida yorug'lik manbaalari
2. Sahnalarni yoritish

### **Kompyuter grafikasida yorug'lik manbaalari**

Bugungi kunda kompyuter grafikasida yorug'lik vizuallashtirishdan keying eng muhim jarayon hisoblanadi. Uch o'lchovli ob'yektlarni fizik jihatdan aniq ko'rinishda modellashtirishda yorug'likning barcha imkoniyatlari sahnalarni yoritishdagi uskunaviy vositalardan foydalanish yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda.



**1-rasm. Yorug'likga misol**




**2-rasm. Quyosh effektiga misol**

To'g'ri o'rnatilgan yorug'lik taqdim etilgan sahna korinishini sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin, yoki yorug'lik manbaalari tasodifiy va noto'g'ri o'rnatilgan sahnalar ko'rinishi real ko'rinishda modellashtirilgan bo'lsada tushunarsiz va ko'rimsiz ko'rinishi mumkin. Mutanosib yorug'lik tasvirning asosiy atmosferasini aniqlab beradi. Yorug'lik kayfiyat, ziddiyatlilik, xursandchilik, zerikish, afzalliklarini ajratib ko'rsatish va kamchiliklarni berkitish va yana bir qancha imkoniyatlardan foydalanishga yo'l ochadi.

### Sahna yorug'ligini yaratish

Real sahnani yaratish uchun ob'yektlarni modellashtirish va ularni materiallar bilan qoplash etarli emas. Belgilangan sohada ob'yektlarni bir-biri bilan qorishtirish zarur. Buning uchun yorug'lik va tabiiy effektlar (tuman, nur va b.) berish oxirgi vizuallashtirish uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.



3-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol

Real hayotda yorug'likning uchta turi mavjud:

1. Tabiiy yorug'lik (quyosh nuri).
2. Sun'iy yorug'lik (olov, turli xil chiroqlar va b.).
3. Kombinasiyalangan yorug'lik (tabiiy va sun'iy yorug'likning turlicha birikishi).



**4-rasm. Integratsiyaga misol**



**5-rasm. Qayta ishlangan rasm**

### **3D Studio Max dasturida yoritish**


1. Asosiy yorug'lik (Key) – yo'naltirilgan yorug'lik, uning yordami bilan sahnada asosiy yorug'lik yaratiladi. Eng yuqori intensivlik (jadallik)ga ega va odatda taxminan 450 burchak ostida joylashadi.
2. To'ldiruvchi yorug'lik (Fill) – sahnaga chuqurlik va reallik beradi. Asosiy yorug'likga nisbatan kam intensiqlikga ega.
3. Orqa, bo'luvchi yorug'lik (Kicker) – sahnada ob'yektlarning orqa tomonini yorug'likni ta'minlaydi. Asosiy yorug'lik manbasidan yuqorida va qarama-qarshi tomonda joylashadi. Avval boshdan yaratilgan ob'yektlar o'z yo'sini bo'yicha o'rnatilgan va tahrirlash uchun ruxsat bo'lmagan yorug'lik manbalari bilan yoritiladi. Customize bosh menyusidagi Viewport Configuration oynasida ikkita yorug'lik manbasini berish mumkin (2 Lights). Yorug'lik manbasi yaratilgandan so'ng, shu yo'sini bo'yicha o'rnatilgan yorug'lik yo'qoladi. 3D Studio Max dasturida yorug'lik manbalarining uch turi mavjud (Lights bandida Geometry bo'lmasi):



1. Standard (standart) – sakkizta yorug‘lik manbasi, tegishli dasturiy birliklarda imitatsiyalanuvchi (o‘xshatib ishlash) sun‘iy yorug‘lik.
2. Photometric (fotometrik) – real o‘lchov birliklariga (intensivlik va temperatura) asoslangan sakkizta manba.
3. Vizuallashtirishning alternativ tizimi uchun maxsus yaratilgan yorug‘lik manbasi (V-ray va b.). Tegishli vizualizator o‘rnatilganidan keyin paydo bo‘ladi va faqat u bilan birga ishlatiladi.

### **Yorug‘likning standart manbalari (standard)**


Yorug‘likning standart manbalari yo‘naltirilgan, ozod va barcha yo‘nalishli manbalardan tarkib topadi. Yo‘naltirilgan manba Target Spot (konussimon yo‘naltirilgan) konus shaklidagi tuzilmaga ega va nishon yo‘nalishini (Target), yorqin dog‘lar doirasi (Hotspot/Beam) va yoritishning tashqi doirasini (Falloff/Field) belgilovchi yorug‘lik manbalaridan (Spot) tarkib topadi.



**6-rasm. Bazaviy yorug‘likni o‘rnatish oynasi**


## Yorug'lik manbaalari turlari

- Omni (всенаправленный) har tomonlama
- Target spot (нацеленный прожектор) qaratilgan proyektor
- Target Direct (Нацеленный Прямой)
- Free Spot (Свободный Прожектор)
- Free Direct (Свободный Прямой)




7-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol

Yoritish doirasi va yorqin dog'lar doirasi orasidagi masofa qancha katta bo'lsa, yorug'lik sohasidan soyalar sohasiga o'tish shuncha engil bo'ladi.




8-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol




**9-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol**

Target Spot yo'naltirilgan manbani yaratishda proeksiya oynalaridan birini bosish, so'ngra nishonni yaratish uchun kursorni olib borish zarur (Target). Free Spot (ozod konussimon) manbasi Target Spot manbasiga o'xshash bo'lib, unda nishon yo'nalishini belgilashning imkoni yo'q. Free Spot ozod manbasini yaratish uchun proeksiya oynalaridan birini bosish kerak.



**10-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol**

Target Direct (to'g'ri chiziqli yo'naltirilgan) yorug'lik manbasi Target Spot manbasidagi tashkil etuvchilarga ega. Undan farqli jihati yorqin dog'lar doirasi (Hotspot/Beam) va yoritishning tashqi doiralari (Falloff/Field) manba o'qiga parallel ekanligi hisoblanadi.



**11-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol**

Omni (barcha yo'nalishli) yorug'lik manbasi barcha yo'nalishlarda yorug'lik nurini tarqatadi (elektr lampochkasiga o'xshatib yasalgan).

Omni manbasini yaratish uchun proeksiya oynalaridan birini bosish etarli (sariq tetraedr ko'rinishidagi belgi paydo bo'ladi).

Skylight manbasi (osmon yorug'ligi) kunduzgi yorug'lik imitatsiyasini yaratadi (ko'pincha, Light-Tracer global yorug'lik elementlari bilan ishlatiladi).

Area Omni va mr Area Spot manbalari mental ray vizualizatorlari bilan birgalikda ishlatiladi va belgilangan sohadan yorug'lik nurlarini tarqatish imkonini beradi.



**12-rasm. Yorug'likni o'rnatishga misol**

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Biror bir sodda uyning maketini modellashtiring va unda turli ob'ektlar hosil qiling va uyning devorida deraza uchun joy ajratib, derazadan dasturda mavjud bo'lgan

yorug'lik manbalaridan 1-2 tasini joylashtiring(Derazadan quyosh nuri tushayotgan effektiga o'xshashi lozim), so'ng Render menyusiga kirib vizuallashtirish jarayonini amalga oshiring.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Ob'yektni tasvirlashda yorug'likning qanday ta'siri bor?
2. Yorug'lik manbalarining qanday turlarini bilasiz?
3. Ob'yektni karkas modeli asosida vizuallashtirishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. Chuqurligi bo'yicha saralash usulida ob'yektni tasvirlash mazmuni nimaga asoslanadi?

## **6-Ma'ruza. Soya va sirt xususiyatlari. Rasm xaritasi. Soya va sirt texturasi. Yuza shaffofligi**

### **Reja:**

1. Soya va sirt xususiyatlari
2. Rasm xaritasi va soya va sirt texturasi
3. Yuza shaffofligi

### **Soya va sirt xususiyatlari**

Shadows (Soyalar) qism menyusida soyalarni yoqish/o'chirish (On parametri ro'parasiga nazorat belgisi) belgilanadi, shuningdek tashlab yuboriladigan soyalar ko'rinishini tanlash amalga oshiriladi.



**1-rasm. Sirt xususiyatiga misol**

3D Studio Max dasturida soyalarning besh xil ko'rinishi mavjud:

– Area Shadows (Hajmiy soya) – ba'zi sohada yotuvchi (to'g'ri burchak, dumalok va b.) bir me'yorda taqsimlangan manbalar guruhidagi bitta manbani almashtirish hisobiga ob'yektdan tushadigan soyani hisoblash amalga oshiriladi.

Area Shadows bo'lmasida kerakli soha tanlanadi, shuningdek chiqarib tanlanadigan soyaning sifati va so'nishi ko'rsatiladi.

– Shadow map (Soyalar xaritasi) – vizuallashtirish jarayonida sahnaga qoplanadigan rastr tasvirlar yaratiladi. Shadow Map Params (Soyalar xaritasi parametri) bo'lmasida soyalar xaritasining o'lchami (Size) beriladi.



- Ray Traced shadows (nurlarning yo‘nalishini belgilash orqali yaratiladigan soyalar) – alohida yorug‘lik nurlarini sahna ob‘yektlarida akslanishi va shaffof muhitda sinishini hisobga olib yorug‘lik manbasidan kamera ob‘yektivigacha o‘tishi nazarda tutadi.
- Adv. Ray Traced (kuchaytirilgan yo‘nalishlarni belgilash orqali yaratiladigan soyalar)
- Ray Traced shadows ga nisbatan muharrirlash uchun ko‘prok parametrlarga ega.
- Mental ray Shadow map – soyaning ushbu turi mental ray vizualizatoridan foydalanishda yaratiladi.



**2-rasm. Xaritaga misol**

General Parameters bo‘lmasining qo‘yi qismida Exclude tugmasi joylashgan, bu tugma yorug‘lik manbasidagi ob‘yektlar va soyalarni kiritish/chiqarish imkonini beruvchi parametrlar oynasini ochadi.



**3-rasm. Xaritaga misol**

Shadow Parameters (Soya parametri) bo'lmisida quyidagilar belgilanadi: soya rangi (Color), zichligi (Dens.), soya xaritasi (proektor effektiga o'xshash). Atmosphere Shadows (Atmosferaviy soya) qism menyusida atmosfera effektiga (tuman va b.) xos soyalar boshqariladi.



**4-rasm.Soyalarga misol**

#### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Biror bir sodda ob'yektni maketini modellashtiring va uning turli holatdagi joylahuvida soyasini hosil qiling, turli teksturali xaritalarni material sifatida ob'yektga qo'llab ko'ring, shaxmat doskasini mustaqil ravishda modellashtiring.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ob'yektni tasvirlashda yorug'likning qanday ta'siri bor?
2. Yorug'lik manbalarining qanday turlarini bilasiz?
3. Ob'yektni karkas modeli asosida vizuallashtirishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. Chuqurligi bo'yicha saralash usulida ob'yektni tasvirlash mazmuni nimaga asoslanadi?
5. Ob'yekt soyasini hosil qilishning qanday usullari mavjud?
6. Xaritalar (Mapslarning) qanday turlari mavjud?
7. Ko'zgu va shaffof materialli ob'yektlarni yaratish qanday amalga oshiriladi?




## 7-Ma'ruza. Kamera va uning turlari

### Reja:

1. Umumiy tushunchalar
2. Kameraning yaratilishi

### Umumiy tushuncha

Kamera – bu istalgan nuqtani, yo'nalishni, burchakni kuzatishimiz mumkin bo'lgan qurilma. Kamera yordamida biz malum bir ko'rinishni saqlab qolishimiz va unga istalgan paytda qaytishimiz mumkin. Ma'lumki, interyer yaratishda biz nechta kameradan foydalanamiz va ularning har biri o'ziga xos ko'rinishni suratga oladi.



**1-rasm. Kamera yordamida sahnani ko'rishga oddiy misol**

Proyeksiyalar oynasi ko'rinishi – bu sahnada ishlatiladigan kameraning o'zidir. Ushbu proyeksiyalar oynasi orqali biz suratga olamiz. Shaxsiy kameralarimizdan foydalangan holda manzarani o'zgartirishimiz mumkin.

### Kameraning yaratilishi

3ds Max - ko'p funktsiyali, professional, uch o'lchovli grafika bilan ishlaydigan dasturiy Sistema bo'lib, Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan. 3ds Max ning ko'plab qurollari bo'lib, ularni modellashtirishda, manzara va kompozitsiyani boshqarishda ishlatish mumkin. Bunday qurollardan biri virtual kamera hisoblanadi.


Kameralar perspektiv ko'rinishda uch o'lchovda tasvirga ololmaydi. 3ds Max dagi virtual kameralar haqiqiy kameralardagi kabi sozlamalarga ega Kameraning afzalligi shundaki, istalgan nuqtadan istalgan ko'rinishda joylashtirish mumkin.

Kamera ko'rinishini istalgan proyeksiyalangan oynada ifodalash mumkin, tasvir va animatsiyalashda ham ishlatiladi.

Rastrli tasvirlar va videolavhalarni vizuallashtirish aslida virtual foto va videotasvir hisoblanadi, shuning uchun sahna bilan ishlashda “Kamera” (Camera) tipidagi ob’ektlardan foydalaniladi. Sahnada turli rakurslarni yozib boruvchi har qancha sondagi kameralarni o‘rnatish mumkin.


3D Studio Max dasturida ikkita ko‘rinishdagi kameralarni yaratish mumkin (Kamerani yaratish tugmasi Geometry/Geometriya bandidagi Cameras (Kameralar):

1. Target (Yo‘naltirilgan kamera). Kameralarning o‘zi (Camera), nishon (Target) va kameraning ko‘rish maydoni (FOV – Field of View)dan tarkib topadi.



**2-rasm.Target kamerasi**


2. Free (Erkin kamera). Yo‘naltirilgan kamera o‘xshash, ammo bunda nishon (Target) qismi mavjud emas.



**3-rasm.Free kamerasi**

Yo‘naltirilgan kamerani yaratish Target Spot yorug‘lik manbasini yaratishga o‘xshash: dastlab kameraning o‘zi yaratiladi, so‘ngra sichqonchani bosish orqali nishon yaratiladi. Create Camera From View (Perspective proeksiyalash oynasidan kamerani yaratadi) buyrug‘i bosh menyuning Views (Ko‘rinishlar) bandida

joylashgan va Perspective (Perspektiv) ko‘rinishidagi yo‘naltirilgan kamerani yaratish imkonini beradi.



**4-rasm. Create oynasi**

Proeksiyalashning ixtiyoriy oynasida kameradan ko‘rinishga o‘tish mumkin. Buning uchun proeksiya oynasi nomi ustiga sichqonchanning o‘ng tugmasini bosish va tushuvchi menyudan Views (Ko‘rinishlar) bandi – Kamera nomi (Camera01)ni tanlash zarur. Kamerani ikki xil usulda boshqarish mumkin:

1. Burish va ko‘chirish buyruqlari yordami bilan proeksiyalash oynasida; 2. Ekraning o‘ng tomon pastgi qismida joylashgan proeksiyalash oynalaridagi boshqaruv tugmalaridan foydalanib. Proeksiyalash oynasida kameralarni bevosita boshqarish standart ko‘rinishga ko‘proq o‘xshash, faqat unda quyidagi buyruqlar mavjud emas:



**5-rasm. Oynani aylantirish uskunalari**

Kameralar parametrlarini tahrirlash ikkita bo‘lma yordamida amalga oshiriladi:

1. Parameters (Parametrlar) bo‘lmasi. Ushbu bo‘lmada kameraning ko‘rish maydoni (FOV) o‘lchamini o‘zgartirish, shuningdek Stock Lences qism menyusida belgilangan fokusli masofadan virtual ob‘yektivni almashtirish mumkin. Kameraning ko‘rish maydoni (FOV – Field of View) graduslarda o‘lchanadi va ko‘rish burchagini xarakterlaydi. Fokus masofasi (focal length) o‘zida plyonka va kamera ob‘yektivni orasidagi masofani namoyon etadi va ob‘yektivni almashtirganda o‘zgaradi.

Fokus masofasi 50 mm bo'lgan ob'yektiv inson ko'zidagi singari, xuddi shunday ko'rish burchagini ta'minlaydi. Environment Ranges (Muhitni cheklash) qism menyusidan yaqin (Near Range) va uzoq (Far Range) diapazonlarni kiritish yordamida muhit effekti (tuman, hajmiy yorug'lik)ning tarqalishini nazorat qilish mumkin.

Clipping Planes (uzoqliligi bo'yicha kamera ko'rinishidagi ob'yektlarni o'chirish) parametridan foydalanish, faqatgina Near Clip (kesib olingan sohaning yaqin tekisligi) va Far Clip (kesib olingan sohaning uzoq tekisligi) tekisliklari o'rtasida ma'lum bo'lgan ob'yektlarni sahnada ko'rinadigan qilish imkonini beradi. Multi-Pass Effect (Ko'p miqdorda vizuallashtirish) qism menyusi ikkita parametrga ega:

1. Depth of Field (O'ta ravshanlik chuqurligi) – orqa planda joylashgan ob'yektlarning hiralashishini hisobga olib, old fondagi ob'yektни ajratish imkonini beradi. Depth of Field Parameters (O'ta ravshanlik chuqurligi parametrlari) bo'lmasida quyidagi parametrlar ko'rsatiladi: Focal Depth (Fokus chuqurligi); Total Passes (orqa plandagi ob'yektlarni hiralashtirish uchun zarur bo'lgan vizuallashtirish soni) va boshqalar.

2. Motion Blur (Harakatdagi xiralashish) – ob'yektlar harakatini ularning xiralashishi hisobiga (masalan: vertolyot parragining aylanishi) imitasiyalaydi. Depth of Field (O'ta ravshanlik chuqurligi) uskunalari bilan bir xil parametrga ega.

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Standart primitivlardan foydalangan holda biror bir sodda uychani yarating va unga mos ravishda erkin(free) kamerani o'rnating va harakatlanish traektoriyasini chizing, keyin kamerani ushbu yo'nalish bo'yicha(traehtoriya bo'ylab) bo'yicha harakatlantirish yordamida uycha ichini aylanib ko'rsatuvchi animatsion mahsulot yarating.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Uch o'lchovli grafikada animatsiya yaratish qanday amalga oshiriladi?
2. Yorug'lik manbalarining qanday turlarini bilasiz?
2. Ob'yektni karkas modeli asosida vizuallashtirishning o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
3. Virtual kameralarning qanday turlari mavjud?
4. Kamera harakatlanish yo'nalishi qanday belgilanadi?
5. Kuzatuv kameralaridan virtual kameralarning farqi nimada?
6. Ko'zgu va shaffof materialli ob'yektlarni yaratish qanday amalga oshiriladi?

## 8-Ma'ruza. Animatsiyaning bir necha tamoyillari

### Reja:

1. Animatsiya tushunchasi
2. Animatsiya turlari va tamoyillari


### Animatsiya tushunchasi

Animatsiya (fransuzcha animation so'zidan olingan bo'lib) — jonlantirish, hayotiy qiyoslash degan ma'noni bildiradi. Animatsiyaning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular qo'llanilishiga ko'ra asosiy animatsiyaning 12 ta tamoyili asosida yaratiladi.



1-rasm. Qo'g'irchoqlar tarixi mul'tfilmi

Kompyuter animatsiyasida ishlatiladigan turli usullar va algoritmlarni o'rganish uchun, dastlab qo'lda chizilgan animatsiyada foydalaniladigan animatsiya tamoyillariga ularning munosabatini tushunish kerak. Lasseterning maqolasida, "Disneyning ba'zi haqiqiy animatorlari tominidan shakllantiriladigan animatsiya tamoyillari, kompyuter animatsiyasida odatiy ishlatiladigan usullar bilan bog'liq" deb keltiriladi.



2-rasm. Birinchi animatsion filmga misol

Qahramonning uch o'lchovli animatsiyasi ko'pincha tabiiy harakatlar orqali berilgan fil'mlarni suratga olinishini eslatsada, biroq an'anaviy ikki o'lchovli applikatsion (qog'oz yoki mato parchalarini biror narsaga tikish yoki yopishtirib hosil qilingan) animatsiyaga o'xshash. Animatsiya ishonarli chiqishi uchun, uning asosiy tamoyillariga tegishli bo'lgan fundamental bilimlarga ega bo'lish lozim.



**3-rasm.Eramizdan avvalgi davrda animatsiya**

1930 yillar o'rtalarida Disney studiyasi uchun yulduzli onlar boshlandi. Ayni shu vaqtlarda animatsiyada ishlatiladigan ko'pgina tamoyillar ochildi. Ushbu tamoyillarni o'rganish maqsadida Uolt Disney o'z xodimlarini barcha spektakl va qisqa metrajli komediyalarni ko'rib chiqishga chaqirdi.



**4-rasm.Dastlabki tasvirlar**

### **Animatsiya turlari va tamoyillari**


1. Zichlash va kengaytirish(Squash and Stretch/Сжатие и растяжение)- Disney studiyasining eng muhim kshfiyotlaridan biri. Uning mohiyati shundan tashkil topadiki, tirik tana har bir qadam qo'yishdagi(boshqa har qanday harakatidagi kabi) harakati vaqtida yoki zichlashadi yoki kengayadi. E'tiboringa molik tomoni shundaki, odam

ob'yekti o'tirgandagi shakli siqiladi, bu shakldan farqli o'laroq sakraganda yoki biror jismni uloqtirganda odam shakli cho'ziladi.

2. Tayyorlanish, yoki oldindan mo'ljalni olish (teskari harakat) - Har qanday keskin harakat yoki jismoniy ishni bajarishdan oldin, harakatni boshlanishiga ogohlantirish sifatida insonga odatda dastlabki tayyorgarlik zarur. Masalan, yuqoriga sakrashdan oldin tizzalar bukiladi, uzoqlikka sakrashdan oldin orqaga yuriladi. Shu sababli otish, surish va zarba berish uchun zarur bo'ladigan kuchni ta'minlovchi kuchli inertsiya harakat yaratiladi. Bunday tayyorgarlik harakati har doim bir yo'nalishda sodir bo'ladi, shuning uchun uni teskari harakat deb atashadi.

3. Sahnaboplik (Сценичность (постоянный учёт того, как видит образ зритель)) Boshqa tamoyillarga nisbatan eng umumiy tamoyil bo'lib, teatr tarixining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Sahnabop harakat har doim sahna tomoshabinlari ko'z o'ngida yuz beradigan voqealarni, tashqi kuzatuvchilarni hisobga oladi. Shuning uchun hammasi imkon boricha aniq, tushunarli va tanib bo'ladigan darajada bo'lishiga harakat qilinadi.

4. Komponentlardan foydalanish va to'g'ri fazoviy harakat (Использование компонентов и прямого фазованного движения). Komponentlar bilan ishlashda animator oldindan o'ylaydi, rejalashtiradi, harakatlarni belgilaydi va asosiy ishlar hisoblangan harakatning ancha jonli va murakkab fazalarini bajaradi. Shundan so'ng sahna fazada ishlatiladigan ancha oddiy oraliq tasvirlarni chizish uchun assistentga uzatiladi. Asosiy e'tabor aynan komponentlarga ishlov berish va harakat vaqtini hisoblashga qaratiladi.



**5-rasm. Komponentkaga misol**



5. To'g'ri harakat(yoki me'yoriga etkazish) va harakatni egallanishi(Сквозное движение (или доводка) и захлест действия)- Umuman olganda bu ikkala tamoyil hech bir narsa to'satdan to'xtab qolmasligini bildiradi. Har bir harakat boshqasi bilan o'zaro aloqada bo'ladi. To'g'ri harakat bitta ob'yekt boshqasiga ta'sir o'tkazgan vaziyatlarda paydo bo'lib, o'zining keyingi harakatiga sababchi bo'ladi. Ikkilamchi ob'yekt harakati, qoida sifatida, birinchiga nisbatan orqada qolishi kuzatiladi.

Harakatni egallanishi effekti ikkinchi harakat birinchisi tugagunga qadar boshlanishini bildiradi.

Bu esa harakatlar o'rtasidagi to'xtalish (пауза)lardan qochish imkonini beradi va animatsiyani ancha qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Qaxramonning barcha qismlari bir va shu vaqtning o'zida harakatni boshlashi va tugashiga yo'l qo'ymaslik lozim. Boshning burilishi qo'l harakati bilan birga davom etadigan tananing burilishiga olib keladi. Kechikish vaqti bor-yo'g'i bir necha kadrlarni tashkil etishi mumkin. Demak, har bir harakat oldingisi tugaguncha boshlanishi kerak.

6. Harakat boshlanishi va tugashini sekinlatish(Смягчение начала и завершения движения)- Og'ir buyumni ko'tarayotgan inson animatsiyasi sekin kirish tamoyili bo'yicha ishlaydi, ya'ni animatsiya boshlanishida asosiy kadrlar bir-biriga yaqin joylashadi. Inson og'irlik kuchini enganidan so'ng, uning harakati tezroq bo'ladi. Bunga asosiy kadrlarni katta qadamlar bilan joylashtirish hisobiga erishiladi. Og'irlikni o'z qo'llarida tutib turish uchun, inson harakatni sekinlashtiradi, demak, asosiy kadrlar yana bir-biriga yaqin joylashadi.

7. Yoy bo'ylab harakat(Дуги)- Yoy- bu ko'rinib turadigan tabiiy harakat traektoriyasi. Real olamda amaliy jihatdan barcha harakatlar egri chizikli traektoriya bo'yicha sodir bo'ladi. Qaxramon har doim egri chizikli traektoriya bo'yicha harakatlanishi lozim. A nuqtadan C nuqtaga to'g'ri harakatlanish o'rniga, B nuqtada qo'himcha asosiy kadr yaratiladi. Masalan, boshni burishda traektoriya o'rtasida qo'shimcha asosiy kadr shunday ko'rinishda yaratiladiki, qaxramon boshini sekin ko'taradi va tushiradi. Shuning hisobiga yoy paydo bo'ladi, harakat esa mexanik ko'rinishda aks etmaydi.

8. Ikkilamchi harakat(Дополнительное действие (выразительная деталь))- Ikkilamchi harakat asosiyni to'ldiradi va kuchaytiradi. Yugurayotgan odamning

birlamchi harakati gavda harakatining oldingaligi hisoblanadi, qo'lning tebranishi, oyoq harakati va boshning chayqalishi ikkilamchi harakatni ifodalaydi. Ikkilamchi harakat asosiyini quvvatlashi (mos kelishi) kerak. Qaxramon yoki shaklni animatsiyalashda ikkilamchi harakat asosiyini quvvatlayotganligiga e'tibor qaratish zarur.



**6-rasm. Ikkilamchi harakatlanayotgan ot**

Agar bu kuzatilmayotgan bo'lsa, qandaydir yo'l bilan birlamchi harakatni qo'shish kerak bo'ladi, aks holda ikkilamchi harakat kuzatuvchi diqqatini tortadi.

9. Vaqtni belgilash (Расчёт времени) - Qaxramon og'irliligi, o'lchami va xarakteriga e'tiborni tortish uchun harakatlar o'rtasidagi intervalni belgilash. Har qanday harakat uchun ishlatilgan fazalar soni, ekranni egallab turgan harakat vaqtini belgilaydi. Asosiy vaziyatlardan biri, agar asosiy kadrlar bir-biridan uzoqda joylashgan bo'lsa, harakat ancha sekin bo'lishi mumkin. Ular bir tekis ko'rinishi mumkin, ammo vaqt noto'g'ri belgilansa juda ham sekinlashadi. Agar asosiy kadrlarni vaqt shkalasida bir-biriga yaqin qilib joylashtirilsa, unda harakat tezkor va keskin bo'ladi. Bunday turdagi harakat mul'tiplikatsiyalar uchun xos.

10. Oshirib ko'rsatish (Преувеличение, утрирование) - Bu tamoyil eng muhimlaridan biri bo'lsada, ammo ko'pincha e'tibordan chetda qoladi. Animatsiya ko'rsatilishi jarayonida yuz beradigan harakatlarni kuzatuvchini nigohini jalb qilishi uchun, ular aniq tavsiflangan bo'lishi kerak. To'g'ri harakatni tutib olish tamoyili bo'yicha animatsiyalangan qaxramon harakati aniq bo'lishi mumkin, ammo bunda orqada qolish va mexanik bo'lib ko'rinadi. Ularga aniq o'ziga xoslik etishmaydi, ba'zi bir akterlarga

ishonchlilik va ilhomlanish etishmaganidek. Bunday qaxramon bilan nima sodir bo'lishi kuzatuvchini ham ranjitmasdan qoldirmaydi.

11. Professional rasm («Крепкий» (профессиональный) рисунок)-An'anaviy multiplikatsiyada bu yaxshi chizish san'atini bildiradi. Kompyuter animatsiyasida ushbu tamoyilni animatsiyaga tegishli yaxshi modellar mavjudligi bilan bog'liq zaruriyat sifatida talqin qilish mumkin. Yaxshi chizish malakasi bevosita uch o'lchovli modellashtirish bilan bog'liq. Chizish jarayoni odamning mutanosibligi, shakli, tuzilishi, qismlarga ajralishini tushunish va anatomiyani bilishni talab etadi. Ushbu ko'nikmalar bilan rassom ish jarayonida nima to'g'ri bajarildi va nima qaytadan tuzatishga to'g'ri kelishini baholash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy animatorlar kompyuter texnologiyalari sharofati bilan ancha kam chizishadi, ammo ularning ishi klassik rasmlar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishni talab etadiki, kompyuter animatsiyasi bilimlariga qo'shish uchun.

12. Jozibadorlik (Привлекательность)-Har qanday predmet jozibador bo'lishi mumkin, agarda unga yaxshiroq qaraladigan bo'lsa undagi jozibani, oddiylikni, yaxshi dizaynni, tushunarliklik va o'ziga jalb etishligini ko'rish mumkin. Jozibador qaxramon kuzatuvchi nigohini o'ziga tortadi va tutib qoladi.



**7-rasm. Mul'tfilmdan lavha**

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Ixtiyoriy animatsion smayliklarni yarating va ovozlashing.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Uch o'lchovli grafikada animatsiya yaratish qanday amalga oshiriladi?
2. Animatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
3. Kompyuterli animatsiya nima?
4. Animatsiyaning 12-tamoyilini tushuntirib bering?
5. Animatsion mahsulotlar yaratishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

## **9-Ma'ruza. Kompyuter animatsiya texnologiyalari.**

### **Kamera animatsiyasi. Yorug`lik animatsiyasi.**

#### **Reja:**

1. Kompyuterda animatsion texnologiyalar.
2. Kamera animatsiyasi.
3. Yoruglik animatsiyasi

### **Kompyuterda animatsion texnologiyalar**

Kompyuter paydo bo'lgandan so'ng animatsiya dunyo bo'ylab keng yoyildi, u animatsiyadan faqat ko'ngil ko'tarish maqsadida emas, balki ilmiy va texnik faoliyatda ham foydalanish imkonini berdi.

90-yillardan boshlab texnologiyalar yanada rivojlanadi va kompyuter ijodiy jarayon, qaxramonlar harakatlari yo'nalishini loyihalashtirish vositasiga aylandi. Eng muhim afzalligi shundaki, yassi qaxramonlar o'rniga uch o'lchovli olam yaratish imkoniyatining mavjudligi. Aynan shuning uchun animatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanmoqda. Animator-rassomlar jarayonni zamonaviy dasturlar yordamida avtomatlashtirmoqdalar.

### **Noodatiy animatsiya texnologiyalari**

Bir qancha noodatiy animatsiya texnologiyalari muallifi Kanadalik rejissor Norman Mak-Laren (1914-1987). Uning har bir filmi- bu kichik mohirona va texnik mukammal tajribadir. Rejissor qo'llagan texnologiyalar orasida – kamerasiz animatsiya (tilinganlik yoki tasvirni to'g'ridan-to'g'ri kinoplenkaga chizish) va piksellashtirish (aktyorlarni real muhitda kadrma-kadr tasvirga olish; masalan, "Соседи" filmi, 1953 y.). Mak-Laren "Серая курочка" filmida (1947 y.) kinoplenkaga kartina bilan ishlash jarayonini kadrma-kadr qayd qilgan (kartondagi tasvirning ketma-ket o'zgarishlari); zamonaviy texnikaning asosiy analogik asosi oynaga qum yordamida rasm chizishdir.


Kukun (qum, kofe yoki, agar fon to'q rangada bo'lsa, tuz) – material judayam murakkab, ish vaqtida hatto ozgina xatolik sababli barini boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Bu yerda hech qanday tayyor dekoratsiyalar, yoki personajlar yo'q: ular to'g'ridan-to'g'ri tasvir jarayonida yaraladilar.

## Kamera animatsiyasi

Animatorlar kamera animatsiyasidan foydalanishlari uchun bir qancha uskunalarning xususiyatlari mavjud.

### Kameralarni ishga tushga tushirish

Kameralarni ishga tushirish vaqt shkalasi yordamida “Привязать камеру к маркерам” operatori yordamida amalga oshiriladi. Kamera ishga tushganda kameradagi uchburchak to'q rangga kiradi.



1-rasm.Kameralarga misol

Dastlab vaqt shkalasida kameralarni ishga tushirishda foydalaniladigan markerlarni o'rnating va qo'shing. Markerni qo'shish uchun M klavishasini bosish lozim, keyin qayta nomlash uchun Ctrl M ni tanlang, markerlarni klonlashtirish ham shunday amalga oshiriladi.

3D-ko'rish oynasida, marker yordamida ishga tushuvchi kamerani tanlang. Kamerani ishga tushirish uchun vaqt shkalasida markerni belgilang. Vaqt shkalasida kamera va markerlarni bog'lash uchun Ctrl-B klavishalarini bosish lozim.


### Kamerani joylashtirish

**Yo'nalish bo'yicha harakatlanish.** Ba'zida, ob'yektlarni yo'nalish bo'ylab harakatlantirish qulayroq.

**Uchish va yurish rejasi** vaqt shkalasi yozuvlari opsiyalariga mos ravishda foydalaniladi. Egri animatsiya kabi Polet traektoriyasini yozish uchun foydalaniladi.

**Ko'rish uchun kamerani zablokirovka qilish.** Ko'rish uchun kamerani zablokirovka qilish vaqt shkalasi qo'shimcha imkoniyatlari bilan ishlatilishi mumkin.


**Dolly Zoom (kamera effekti).**Xususiyatlar redaktorida kamera bir qator xususiyatlar va uskunalarga ega.



**2-rasm.Kamera xususiyatlari oynasi**

### **Suzuvchi burilishlarni yaratish**


Splaynni belgilang va Modify bo'limiga o'ting. Qirra darajada (Vertex) ishlash rejimiga o'ting va Ctrl + A klavishalarini bosish yordamida splaynning barcha qirralarini belgilab olamiz. Shundan so'ng, panelning pastki qismidan Fillet (Скругление) tugmasini qidiring. Silliqlash qiymati sifatida misol uchun, 110 sm yoki o'z ixtiyoriy qiymatingizni kiriting. Endi burilishlarda kamera silliq aylanadi, shuning uchun ham yanada realroq ko'rinadi. Sizda taxminan shunday ko'rinishi kerak:



**3-rasm. Kamera uchun traektoriya hosil qilish**

### **Kamerani yaratish**


Kamerni yaratish uchun quyidagi bo'limlarni tanlash zarur: Create > Cameras > Target Camera. Sichqonchaning chap tugmasini bosib, splaynli yo'lda va kursorni uzoqroqqa suramiz. Kamerani splaynga yaqinroq joylashtiring va ko'zimizga mos darajada yuqoriga ko'taring. Ob'yektiv diametrini taxminan 35 mm (Lens: 35,0 mm) deb tanlab olsak, yoki boshqa diametrini ham tanlash mumkin. keyin kamera nimani ko'rayotganini ko'rish kerak. Buning uchun Perspective faol proeksiya oynasida C klavishasini bosib. Shu yo'l bilan biz kamera ko'rinishiga tezgina o'tib olamiz.




**4-rasm. Kamera muhiti**



Ushbu bosqichda **Time Configuration** (Конфигурация временных интервалов) ni sozlab olish maqsadga muvofiq. Dialog oynasida biz animatsiyaning davomiyligini va kadrlar chastotasini (FPS) unda ko'rsatib o'tamiz. Time Configuration tugmasini interfeysning o'ngdagi burchagidan topasiz, kadrlar raqami maydonidan o'ngroqdan topasiz (ikonkasida soatning rasmi bor). Biz sizga sekundiga 24 kaddan foydalanuvchi **Frame Rate** (Частота кадров) bo'limida **Film** (Кино) turini tanlashni tavsiya qilamiz, chunki rendering tezroq amalga oshiriladi, chiroyliroq ko'rinadi.



**5-rasm. Time Configuration oynasining ko'rinishi**



**6-rasm. Splayn bo'ylab harakatlanish marshruti kontroller ko'rsatmasi**

Kamerani belgilab oling, Motion (Движение) vkladkasini faollashtiring va unda Assign Controller (Назначить контроллер) svitokini oching. Shunda Transform svitokli maydonni ko'rasiz, bu yerda sizga Position qatorini belgilab olish lozim, keyin belgi tasvirlangan Assign Controller tugmasini bosamiz. Assign Position Controller dialog oynasi paydo bo'ladi. U yerdan sizga Path Constraint (Контроллер пути)ni tanlash kerak bo'ladi va OK tugmasini bosish. Barcha marshrut kontrolleri izlari kamera uchun splaynda qo'llaniladi.

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Kamerani ishga tushiring va unga mos harakatlanish yo'lini chizib oling, so'ng biror bir ob'yekt bo'ylab kamera animatsiyasini yarating, yaratilgan animatsiyani saqlang.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Uch o'lchovli grafikada animatsiya yaratish qanday amalga oshiriladi?
2. Animatsiyaning qanday turlarini bilasiz?
3. Kamera qanday ishga tushiriladi?
4. Kamerani sozlash bosqichlarini sanab bering?

## **10-Ma'ruza. Ikki va uch o'lchovli integratsiya. Yuqori darajali kompyuter animatsiya texnologiyalari. Teskari kinematika**

### **Reja:**

1. Ikki va uch o'lchovli integratsiya
2. Yuqori darajali kompyuter animatsiya texnologiyalari
3. Teskari kinematika

### **Uch o'lchovli grafikada integratsiya va fototasvir**


Uch o'lchovli grafikaning asosiy afzalliklaridan biri ikki o'lchovli tasvirlarni integratsiya qilish imkoniyatidir. Avvalambor qanday ko'rinishdagi va sifatdagi tasvirni integratsiya qilishni aniqlash lozim. Bu asosiy mos nuqtani topishda va ma'lum bir ko'rinishga keltirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa bu skanerlangan rastr tasvir bo'lsa, yoki raqamli fotoapparat yordamida suratga olingan tasvir bo'lsa, 300 dpi kichik bo'lmagan TIFF kengaytmaga ega rasm bo'lishi lozim. Raqamli tasvirni qo'lga kiritgach uni integratsiya jarayoniga tayyorlash mumkin (-rasm).



### **1-rasm. Skanerlangan fon sifatida ishlatiluvchi tasvir**

Endi tasvirni fonli tasvir sifatida Perspective (Перспектива) proeksiya oynasida, bundan tashqari atrof-muhit xaritasi sifatida ham joylashtirish kerak, o'z navbatida bu rasmni proeksiya oynasida nafaqat ko'rish balki vizuallashtirishga yordam beradi. Buning uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

1. Common Parameters (Общие параметры) bo'limida ochilgan Environment and Effects (Окружающая среда и эффекты) dan None (Отсутствует) tugmasini tanlash lozim.
2. Paydo bo'lgan Material/Map Browser (Окно выбора материалов и карт) dialog oynasidan Bitmap (Растровое изображение) ni tanlang. Откроется окно Select Bitmap Image File (Выбор растрового изображения) oynasi ochiladi.
3. Fonli tasvir fayli adresini ko'rsating va Open (Открыть) tugmasini bosing (2-rasm), shundan so'ng Environment and Effects (Окружающая среда и эффекты) oynasini yoping.



## **2-rasm. Fonli tasvir qo'shilgandan so'ng Common Parameters (Общие параметры) oynasining ko'rinishi**

Ba'zida ish jarayonida rastrli tasvirni ozgina korreksiyalash talab etiladi, bu ishni rastrli tasvirlarni tahrirlashga mo'ljallangan dasturlarni ishga tushirmasdan 3ds Max dasturini o'zida amalga oshirish mumkin. Buning uchun fonli tasvir xaritasini Common Parameters (Общие параметры) dan Environment and Effects (Окружающая среда и топ материалов) oynasini tanlash yoki M klavishasini bosish kifoya. Fonli tasvir fayli nomini Environment and Effects (Окружающая среда и эффекты) oynasidan bosish kerak va sichqoncha tugmasini qo'yvormay turib, Material Editor (Редактор материалов) oynasiga ixtiyoriy bo'sh material oynasi katakchasini tanlang, nusxalash usuli sifatida Instance (Привязка) o'rnatish.

Tasvirni tahrirlash zarurati bo'lsa Material Editor (Редактор материалов) oynasidan Bitmap Parameters (Параметры растрового изображения) yoki Output (Результат) tanlash lozim. Ushbu bo'limlar yordamida chiqariluvchi tasvirni


korrektirovka qilish, ranglikorreksiya, ranglar tiniqligini, yuqori sifatga va boshqa rastrli tasvir parametrlaridan foydalanish mumkin.

Shundan so'ng rastrli tasvirni proeksiya oynasida joylashtiriladi va vizualizatsiya parametrlari o'zgartiriladi.

Buning uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

1. Paydo bo'lgan Viewport Background (Фон окна проекции) oynasidan Use Environment Background (Использовать фон окружающей среды) bayrog'ini o'rnating va Display Background (Показать фон)ni tanlang.

2. Fon ko'rinidhi kerak bo'lgan Proeksiya oyasi sifatida, ro'yhatdan Viewport (Окно проекции) Perspective (Перспектива) qatorini tanlang(3-rasm).



**3-rasm. Viewport Background (Фон окна проекции) fonli tasvir nastroykasi oynasi**


3. Sozlash jarayoni tugaganidan so'ng OK tugmasini bosing.

4. Common Parameters (Общие параметры)ning Output Size (Выходной размер) bo'limida fonli tasvirni o'lchamiga mos ravishda piksellarda tasvirning eni va bo'yi belgilari ko'rsatiladi. (esingizda bo'lsa, faylni ochishda uning o'lchamiga e'tibor qaratishi maslahat bergandik).

Ushbu harakatlar bajarilgandan so'ng Perspective (Перспектива) proeksiya oynasida fonli tasvir sifatida rasm paydo bo'ladi.

Fonli tasvirni tahlil qilamiz. Birinchi, ishga tushganda tasvirga olishdagi fazodagi nuqtani aniqlab(bu sahnada kamerani to'g'ri o'rnatishda zarur), bundan taqari yorug'lik va soyani tahlil qilish lozim(yorug'lik manbalarini joylashtirishda kerak bo'ladi).

Uch o'lchovli animatsiya texnologiyalariga asosan qo'g'irchoqli animatsiyani eslatadi: siz karkasli ob'yektlar yaratasisz, ularga har xil materiallar tanlaysiz, bularning barchasini yagona bir sahnaga komponovka qilasiz, yorug'likni va kamerani o'rnatasiz , keyin filmdagi kadrlar sonini berasiz va predmetlar animatsiyasini yaratasisz. Ushbu amalga oshirilgan harakatlarni harakatlantirish mumkin bo'lgan kamera yordamida ko'rish mumkin. Uch o'lchovli fazoda ob'yektlar harakati traektoriya bo'ylab, murakkab konstruksiya qismlari harakatlarini bog'lovchi formulalar yordamida va kalit kadrlar, bilan beriladi. Kerakli harakatni tanlagandan so'ng, yorug'lik, materiallar, siz vizualizatsiya jarayonini boshlaysiz.



**4-rasm. Teskari kinematikaga misol**

Bir qancha vaqt mobaynida kompyuter barcha zaruriy kadrlarni hisoblaydi va sizga tayyor filmni taqdim etadi.



**5-rasm. Uch o'lchovli animatsiyalangan model**

## **Realistik tasvirlar yaratish texnologiyasi**

Ko'pgina ob'yektlar qo'lda chizilishi mumkin bo'lgan Ikki o'lchovli animatsiyadan farqli ravishda, uch o'lchovli ob'yektlar judayam silliq, ularning shakli judayam to'g'ri va ular judayam geometrik traektoriya bo'ylab harakatlanailar. Lekin bu muammolarning echimi mavjud. Animatsion paketlarda vizualizatsiya vositalari yanada yaxshilanmoqda, yaratish uskunalari yangilanmoqda va materiallar kutubxonasi kengaytirilmoqda.

“Notekis” ob'yektlarni yaratishda, masalan soch yoki tutun, ob'jektning ko'pgina qismlarini shakllantirish texnologiyalarida foydalaniladi.



**6-rasm. Realistik tasvirga misol**

Invers kinematika qo'llanmoqda va jonlantirishning boshqa texnikalari, sahnalarni va harakatlarni yanada realroq qilish imkonini beruvchi videotasvirni va animatsion effektlarni moslashtiruvchi yangi usullar paydo bo'lyapti. Bundan tashqari, ochiq tizim texnologiyalari bir vaqtda bir necha paketlar bilan ishlash imkonini beradi. Modelni bir paketda yaratib turib, uni boshqa paketda qo'shimchalarini chizish, uchinchisida jonlantirish, to'rtinchisida videoyozuv bilan to'ldirish mumkin va bugungi kunda ko'pgina professional paketlar funksiyalarini maxsus baza paketlari uchun yozilgan qo'shimcha ilovalar yordamida kengaytirish mumkin.

### **Teskari kinematika tizimini qo'llash asoslari**

Markersiz tizimlarda ajralib turadigan elementlarni joylashishini kuzatish uchun ta'qib qilish algoritmlari ishlatiladi. Masalan, aktyor kiyimi yoki uning burni. Ta'qib etilgan harakatlar Autodeskning MotionBuilder kabi dasturlarda animatsiyalangan personajning virtual «suyak»lari o'tqaziladi. Natijada nima? Tirik aktyorlar harakati bilan kompyuter personajlar. Tirik harakatlar virtual personajda qanday ko'rinishini tasavvur qilish qiyin, shunday qilib James Cameron tomonidan «Avatar» filmiga o'ylab topilgan «virtual kinematografiya» qo'llaniladi.



**12-rasm. Motion Capture texnologiyasi**



**13-rasm. Motion Capture texnologiyasi**



## Mavjud bo'lgan texnologiyalar

Motion capture tizimining ikkita asosiy turlari mavjud.

1. Maxsus uskunalar ishlatiladigan motion capturening markerli tizimi. Odam datchiklar o'rnatilgan kostyum kiyadi, u stsenariyga muvofiq harakatlarni bajaradi, kelishilgan xatti harakatlar qiladi, amallarni imitatsiya qiladi; datchiklardagi ma'lumotlar kamera orqali tasvirga olinadi va kompyuterga yuboriladi va u yerda aktyorning harakatlarini takrorlovchi bir uch o'lchamli obyektga birlashtiriladi va bu asosida keyinchalik personajning animatsiyasi yaratiladi. Hamda bu usul yordamida aktyorning imo-ishoralarini ijro etish mumkin ( bu holatda uning harakatlarini ko'chiruvchi markerlar uning yuziga o'rnatiladi).

2. Markersiz texnologiya, bu turda maxsus datchiklar yoki maxsis kostyumlar talab qilinmaydi. Bu texnologiya kompyuter nuqtai nazar va tasvirlarni ta'qib qilish texnologiyalariga asoslangan. Aktyor o'zining kiyimida tasvirga tusha oladi va bu o'z navbatida tasvirga olish uchun tayyorgarliklarni tezlashtiradi va datchik yoki markerlarga zarar yetkazish xavfini tug'dirmasdan qiyin harakatlarni (urush, yiqilish, sakrash) amalga oshirishga ruxsat etadi. Oxirgi yillarda amalda qo'llaniladigan markersiz tizimlar yaratildi, bunday texnologiya bo'yicha tadqiqotlar uzoq vaqt mobaynida o'tqazilayotganligiga qaramagan holda.

Bugungi kunda markersiz harakatni ta'qib etish uchun «stol usti» sinfli dasturiy ta'minotlar mavjud. Bunday holatlarda masus uskunalar, maxsus yoritgichlar va joylar kerak emas. Tasvirga olish jarayoni oddiy shaxsiy kompyuterning kamerasi orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda markerli harakat ta'qib etishning ko'p turlari mavjud. Ular orasidagi farqi harakat uzatishning printsiplaridan iborat:

**1. Optik passivlik**, bunday komplekt sistemasiga kiruvchi kiyimga, passiv deb nomlanuvchi market-datchik o'rnatilgan, ular faqat tushirilgan nurni akslantiradi va uning o'zi nur taratmaydi. Bunday sistemalarda markerga mahsus stroboskop orqali nur tushiriladi va u markerdan qayta kamera obyektiviga tushadi, o'z o'rnini ko'rsatib.

*Passiv tizimning minuslari:*

- Markerlar uzoq vaqt aktyor ustida bo'lishi

- Tez harakatlar vaqtida yoki markerlarning bir-biridan uzoqlik masofasi qisqa bo'lsa sistema uni ajratmasligi mumkin (tehnologiya har bir markerni identifikatsiyasini ko'rib chiqilmagan)

**2. Optik aktiv sistemalar,** aktyor kostyumiga mahkamlanadigan nur aks ettiruvchi markerlar o'rniga integratsiyalangan va radio-sinxronizatsiyalangan svetodiodlar ishlatilishi uchun shunday nomlanadi.

**Aktiv tizimning kamchiliklari:**

- Yuz imo-ishoralarini va harakat ta'qib etish imkoniyati yo'qligi
- Aktyorga mahkamlanadigan va svetodiod-markerlarga ulanadigan qo'shimcha bo'shqaruvchi qurilmalar, uning harakatlarini chegaralaydi
- Marker-svetodiodlarning zaif va nisbatan qimmatligi

**3. Magnit tizimlar,** bunday tizimlarda markerlar magnit bo'ladi, kamera sifatida esa resiverlar, tizim magnit oqimning o'zgarishini hisoblab joylashishini aniqlaydi.

**Magnit tizimning kamchiliklari:** Magnit tizimlar metal va atrof-muhitdan bo'ladigan magnit va elektr to'sqinliklarga duch etadi.

- Ma'lum bir ish hududlarda sensorlarning sezgirligi o'zgaruvchan bo'ladi
- Optik tizimlarga nisbatan ish maydoni kamroq
- Yuz imo-ishoralarini va harakat ta'qib etish imkoniyati yo'qligi
- Aktyorga mahkamlanadigan va magnit-markerlarga ulanadigan qo'shimcha bo'shqaruvchi qurilmalar, aktyordan kompyutrgacha sim tortiladi
- Magnit-markerlarning Qimmat baholig

**Mexanik tizimlar** bo'g'imlarning qayirilishini to'g'ridan to'g'ri kuzatadi, buning uchun aktyorga maxsus mocap-skelet taqiladi va uning barcha harakatlarini takrorlaydi. Bunday holatda bo'g'inlarning barcha qayirilishlari haqidagi ma'lumotlar kompyutrga yuboriladi.

**Mexanik tizimning kamchiliklari:**

- Mocap-skelet, qo'shimcha bo'shqaruvchi qurilmali aktyorga mahkamlanadigan va qayiriluvchi sensorlarga ulanganda bir xil holatlarda skeletdan kompyutergacha similar bilan ulanadi va aktyor harakatlarini chegaralaydi

- Ta'gib etish imkoniyati yo'qligi:
- Yuzning imo-ishiralarini va harakatlarni
- Ikki aktyorning o'zaro ta'siri
- Yerda harakati – sakrash, yiqilish va boshqalar
- Bejarvo foydalanganda mexanikaning sinisfhi xavfi

### **Motion Capturening afzalliklari va kamchiliklari**

Bir tomondan motion capture – aktyorlarni jonli tasvirga olish o'rniga, boshqa tomondan – qo'l bilan uch o'lchamli qilingan animatsiya qilish o'rniga ishlatsa bo'ladi. mo-cap ning afzalliklari va kamchiliklari bu texnologiyalarga nsibatan alohida ko'rib chiqamiz.

#### **Motion Capture afzalliklari**

- Bir aktyor bir qancha rolini o'ynay oladi
- Uch o'lchamli fonda jonli video begonadek tuyilishi mumkin. Ayniqsa real vaqtda bajariladigan kompyuter o'yinlari kabi bu 3d ga tegishli.
- Tadbirdan keyin tahrirlash imkoniyati
- Kostyum va grimmi keng qo'llanilishi imkoniyati
- motion capture va qo'l multiplikatsiyasi bilan ishlash imkoniyati
- Pavilonda tasvirga olish uchun qiyin bo'ladigan rakursdan olish imkoniyati
- Kompyuter effektlari ko'p bo'lgan sahnalarda tirik aktyorlar bilan va kompyuter personajlari bilan birlashtirish imkoniyati



**14-rasm. Motion Capture texnologiyasi**

### **«Ko'k ekran» afzalliklari**

- Motion capturening ko'p turlari juda qimmatbaho
- «Ko'k ekran»ni deyarli katta o'lchamlarda qilish mumkin va uni fonida katta sahnalarni tasvirga olish mumkin, shu paytda motion capture studiyasi chegaralangan. Fotorealistik personajlarni fotorealistik muhitga qaraganda kompyuterda tasvirlash qiyinroq. Shuning uchun ishlab chiqarishning bir pog'onasida, sezilarli darajada «kompyuter» personaji haqiqatdan ajratib bo'lmaydigan fonda begonadek ko'rinadi.

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Face animation asosida animatsion ob'yekt yarating.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Yashil ekranning afzalliklari?
2. Ko'k ekranning afzalliklari?
3. Motion Capture texnologiyasiga qanday qurilmalar talab etiladi?
4. Motion Capture texnologiyasining asosiy imkoniyatlarini sanab bering?
5. Marker nima?
6. Magnit tizimi nima?

## 14-Ma'ruza. Materiallar yaratish. Ob'yektlarga material berish. Standart materiallardan foydalanish

### Reja:

1. Tekstura va material tushunchasi
2. Realistik material yaratish
3. Material turlari

### Tekstura va material tushunchasi

Sahna ob'yektlari modellshtirilganidan so'ng keyingi bosqich ularga materiallarni o'zlashtirish hisoblanadi. Tayyor yaratilgan materiallar orqali ob'yektlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. "Skaf" ob'yekti – taxtali, "Butilka" ob'yekti – oynali, "Qoshiq" ob'yekti- metalli bo'ladi va hokazo. Shuning uchun realistik materiallarni yaratish jarayoni etarlicha murakkab va ob'yektni o'zini yaratishga nisbatan ko'p vaqt talab etadi.

Materiallarni ikki ko'rinishga ajratish mumkin( rasm):

1. **Jonli** – oyna, metal, mato, rezina, va boshqalar.
2. **Jonsiz** – teri qoplamasi, o'simlik va boshqalar.



1-rasm. Jonli va jonsiz materiallar

Jonli materiallar yaratish murakkab, chunki ular bir qancha qatlamlardan tashkil topgan, ularning har biri o'z darajasidagi shaffoflik, ranglar va teksturalarga ega bo'ladi. Bundan tashqari qontalash, ajinli, badanni qoplagan tuk, qon tomirlari va boshqalar kabi qismlarni hisobga olish lozim.


Jonsiz materiallar holatida akslantirishning fizik jarayonini va material sirtidan yorug'lik nurining sinishini to'g'ri modellashtirish lozim.

Noyob material yaratish uchun grafik muxarrirlarni yaxshi bilish kerak (Adobe Photoshop va boshqalar), chunki aksariyat materiallarni ularga teksturalarni o'zlashtirish bilan boshlanadi. Tekstura o'zida rastri tasvirlarni (yoki videorolik) ifodalaydi, qaysiki model qisman (naqsh ko'rinishida) yoki to'liq (ob'yekt tasvir bilan "qoplanadi") o'zlashtiriladi (rasm). Rastri tasvirlardan foydalanishda, ularning o'lchamini va sifatini hisobga olish lozim.




## 2-rasm. Shar ob'yektini teksturaga o'zlashtirilishi

Qachonki tekstura ob'yektga bog'lansa, qo'shilish chizig'i paydo bo'ladi (rasm a). Qo'shilish chiziqlarini yo'qotish uchun qo'shilish chiziqlari bo'lmagan teksturalardan foydalaniladi (rasm b), qaysiki ob'yektga har qancha takrorlanishlar bo'lsa ham, qo'shilish chiziqlari ko'rinmaydi.



**3-rasm. Qo'shilish chiziqlari bo'lgan (a) va bo'lmagan (b) tekstura**

Rastrli tasvirlardan foydalanishning yana bir usuli maskalar (Mask) qo'yish hisoblanadi.



**4-rasm. Yorliq qo'yish uchun maskalardan foydalanish**


Maska (Mask), qoida sifatida, boshqa tasvir qismini berkitish yoki tasvir qismiga biror bir ob'yektni qo'yish uchun zarur bo'lgan oq-qora tasvirni o'zida ifodalaydi. Maskada qora rang shaffof (intensivligi 0%) oq rang xira (intensivligi 100%) hisoblanadi(rasm).

### **Realistik material yaratish**

Material yaratishda uning haqiqiy fizik xususiyatlarini hisobga olish kerak. 3 D Studio Max dasturida quyidagi parametrlar boshqariladi:

1. Ob'yekt rangi. Fon yorug'ligiga ta'sir, ob'yekt o'zini-o'zi yoritishi, boshqa ob'yektlarda rangni aks etishi (metal materiallar)hisobga olinadi.

2. Shu'lalar. Shu'lalar o'lchami, yorqinligi va soni boshqariladi. Izoh: predmetga  $90^{\circ}$  burchak ostida tushuvchi yorug'lik nuri oynali shu'lani yaratadi(yorug'likning eng yuqori intensivligi). Tushish burchagining o'zgarishi va nurning aks etishiga muvofiq, soya sohasiga bir tekis oqib o'tuvchi diffuzion (qorishgan) tarqalish sohasi yuzaga keladi(rasm).



### 5-rasm.Yorug'likning kuzatuvchiga nisbatan ob'yektda aks etishi

3. Ob'yekt shaffofligi. Realistik material yaratish uchun faqatgina sifatli tasvirlarni qo'yishning o'zi etarli bo'lmasdan, quyidagi parametrlarni hisobga olish zarur:


1. Yorug'lik nurining aks etishi va sinishi jarayoni
2. Materialning bir jinsli emasligi va yoyilish darajasi(chang, iflos, kir, dog', qurum, o'yoq, yoriq, zang, metallarning oksidlanishi va boshqalar). Izoh: ifloslangan, qirilgan ob'yektlarni yaratish uchun turli nuqsonlar ifodalangan qo'shimcha teksturalardan foydalaniladi, so'ngra ular maska sifatida ob'yektga qoplanadi.

- rasmda "Boltlar" ob'yektlari materialini yaratishning 3 ta darajasi keltirilgan.

1. Norealistik – Reflection (Shaffoflik) parametrda metal teksturasini o'zida ifodalovchi Metal\_ChromeFast standart materialidan foydalanilgan.
2. Realistik – zanglagan metalning sifatli teksturasi, shuningdek nuqsonli tekstura(metaldagi qirilgan joy va boshqalar) ishlatilgan realistik material yaratilgan.



3. Gipperrealistik – mazkur ob’yektni yaratish uchun metal ob’yektga yorug’lik nurining aks etishi va sinishi hisobga olingan V-ray alternativ vizualizatoridan foydalanilgan.



### **6-rasm. Realistik material yaratish**

Izoh: 3 D Studio Max grafik dasturida alternativ vizualizatorlar (V-ray, Mental-ray ) ishlatiladiki, ular ob’yektlardan yorug’likni aks etishi va sinishi bilan bog’liq real fizik jarayonlarni hisoblash chiqish imkonini beradi. Ushbu vizualizatorlar realistik ob’yektlar yaratish uchun o’zining shaxsiy andozali materiallariga ega. Bundan tashqari Internet orqali metal, oynali va boshqa sirtlar uchun tayyor realistik materiallarni toppish vs ularni o’zimiz yaratayotgan sahnada foydalanish mumkin.


### **Materiallarni taxrirlash (Material Editor)**

Materiallarni yaratish va taxrirlash Material Editor (Materiallarni taxrirlash) oynasida amalga oshiriladi(rasm). Bu oynani bosh menyudagi Rendering(Vizuallashtirish) bandidan yoki uskunalar paneliga tugmachani bosish orqali chaqirish mumkin(-jadval -bandi).

Material Editor (Materiallarni taxrirlash) oynasining tarkibi:

1. Yuqorida joylashgan menyu taxrirlash buyruqlaridan tarkib topgan
2. Material yacheykasi – har bir noyob material o’zining yacheykasi va nomiga ega bo’ladi. Yangi material yaratish uchun keyingi yacheykani tanlash va harakatlarni bajarish zarur. Materiallardan nusxa olish mumkin, buning uchun material berilgan

yacheykaga sichqonchanning chap tugmasi bosiladi va uni boshqa yacheykaga ko'chiriladi.



**7-rasm. Material Editor oynasining tuzilishi**









Shundan so'ng material nomi o'zgartiriladi, agarda ushbu material boshqa ob'yektga qo'llanilsa, dastur quyidagi so'rovli oynani ekranga chiqaradi: Replace It(materialni o'zgartirish) yoki Rename the material(Material nomini o'zgartirish).

3. Material yacheykasiga sichqonchanning o'ng tugmasi bosilganda, ushbu yacheykada oby'ektni burish (Drag/Rotate), alohida oynada yacheykani kattalashtirish








(Magnify...), shuningdek yacheykalar sonini o'zgartirish (Sample Windows) imkonini beruvchi qo'shimcha menyu chaqiriladi.

4. Material Editor oynasining pastki qismida material yaratishga mansub bo'lgan bo'limlar joylashgan.

### 1-jadval. Boshqaruv panelining tuzilishi

№	Tugma	Buyruq nomi	Tavsifi
1		Get Material (Materialga ega bo'lish)	Materiallar va xaritani tanlash oynasini ochadi (Material/Map Browser).
2		Assign Material to Selection (Ob'ektga materialni qo'llash)	Tanlangan ob'ektlarga materiallarni qoplaydi. Tanlangan yacheyka chetlari bo'yicha bu tugma bosilganda to'rtta uchburchak paydo bo'ladi (faol yacheyka alomati).
3		Reset Map/Mtl to Default Settings (Xaritani tiklash/Material o'z holda)	Agarda joriy material sahna ob'ektlariga berilgan bo'lsa, unda ushbu tugmani bosganda quyidagi so'rovli oyna paydo bo'ladi: 1. Affect mtl/map in both the scene and in the editor slot? – Sahnada va materiallarni tahrirlashda material/ xaritani tiklash?; 2. Affect only mtl/map in the editor slot? – Faqatgina materiallarni tahrirlashning joriy yacheykasida material/xaritani tiklash, materialni ob'ektsiz qoldirish.
4		Put to Library (Materiallar kutubxonasiga joylash)	Tanlangan yacheykada yaratilgan material, materiallar kutubxonasiga ko'shiladi. Tugma bosilganda esa material nomini ko'rsatishni so'rovchi oyna paydo bo'ladi.
5		Material ID Channel (Materialning identifikasiya raqami)	Joriy materialning noyob kanalidan kelib chiqib videomontaj effektlarini (Video Post) qoplash uchun ishlatiladi.
6		Show Map in Viewport (Proeksiya oynalarida xaritani ko'rsatish)	Proeksiyalar oynasida ob'ektga material teksturasini aks ettiradi.
7		Show End Result (Yakuniy natijani ko'rsatish)	Ushbu tugma joriy materialning barcha quyi darajadagi tahrirlashlarning yuqori darajasini aks ettiradi.
8	1. 	1. Go to Parent (Ancha yuqori quyi)	Mazkur tugmalar materialning quyi darajalari bo'yicha ko'chirish imkonini beradi.

АКТИИ  
Чтобы

		darajaga o'tish); 2. Go Forward to Sibling (Pastgi qo'yi darajaga o'tish)	
9		Suriladigan panel: Sample Type (Aks etish turi)	Material yacheykasida tasvirlanadigan ob'ekt turini (shar, silindr, kub) tanlash imkonini beradi.
10		Backlight (Yorug'lik berish)	Materialni pastda yoritadi (ikkinchi yorug'lik manbasi qo'shiladi) .
11		Background (Orqa fon)	Yacheykada orqa fonni beradi, shaffof materiallar bilan ishlashni osonlashtiradi.
12		Options (Material-larni tahrirlash variantlari)	Bu oyna orqali yacheykalarda yorug'liklar parametrlarini berish, materiallarning aks etishini boshqarish mumkin.
13		Select by Material (Material bo'yicha tanlash)	Ushbu tugma bosilganda mazkur materialning ajratilgan ob'ektlari berilgan Select Objects oynasi paydo bo'ladi.
14		Material/Map Navigator (Materialni ko'rish)	Joriy materialning ierarxiyasini ko'rsatadi.

### **Material / Map Browser (material/ xarita muxarriri) oynasining tuzilishi**

Material / Map Browser (material/ xarita muxarriri) oynasi Standart tugmasini, shuningdek materiallarni taxrirlash bo'lmasidagi parametrlar tugmasiga bosganda ochiladi va material yoki xarita turini tanlash va materiallarning tayyor kutubxonasiidan foydalanish imkonini beradi.


3 D Studio Max grafik dasturida materiallarning standart kutubxonasi matlibs katalogida 3dsmax.max faylida joylashadi. Boshqa kutubxonalar ham \*.mat. kengaytmasiga ega bo'ladi.



Izoh: Kutubxonadagi materiallar o'zida 3 D Studio Max dasturidagi maps katalogida yoki boshqa joyda saqlanadigan tasvirlarni aks ettiruvchi teksturalarni ishlatadi.

Material / Map Browser (material/ xarita muxarriri) oynasining tuzilishi(-rasm):

1. Browse From qism menyusi quyidagi ko'rish turlariga ega: Mtl Library - materiallar kutubxonasi; Mtl Editor – materiallar muxarriri yacheykalari ro'yhati; Selected- sahnadagi tanlangan oby'ektlar materiali; Scene – sahnadagi barcha faol materiallar; New- yangi yaratilgan materiallar va xaritalar.



8-rasm. Material / Map Browser oynasining tuzilishi

2. Show qism dasturi materiallar va xaritalarning aks etishini kiritadi/olib tashlaydi.

3. Root Only parametri (faqat ildiz ob'yekt) materialning yuqori darajasini aks ettiradi.

4. File(Fayl) qism menyusi materiallarning turli kutubxonalarini ochish (Open...), kutubxonani birgalikda bog'lash (Merge...), kutubxonani saqlash (Save..., Save As...) imkonini beradi.

5. Yuqoridagi uskunalar paneli materiallar ro'yhatini turli aks ettirish (ro'yhat, ro'yhat+tasvir ikonkasini va b.),shuningdek materialni kutubxonadan o'chirishni ("Delete from Library" tugmasi) amalga oshirish imkonini beradi.

Shunday ekan, foydalanuvchining o'zi material yaratishi va materiallar kutubxonasini shakllantirishi mumkin.






### Material turlari




Yaratilgan material o'zida xarita, yorug'likni o'zlashtirish parametrlari, shaffoflik,qaytish va sinish, o'zidan nur sochish va boshqalardan tarkib topgan majmuaviy ob'yektni ifodalaydi.

Material andozasini tanlash uchun, materiallar muxarririda Standart tugmasini bosish, so'ngra ochiladigan Material / Map Browser menyusidan Browse From qism menyusiga kirib ; New(Yangi material) parametrini tanlash zarur.

### 2-jadval. Materiallarning asosiy turlari

№	Material turi	Tavsifi va asosiy parametrlari
1	 Architectural (Arxitekturaviy)	Intererlar bilan ishlash uchun materiallar yaratish imkonini beradi. Templates (andazalar) bo'lmasida materiallar tayyorlashni tanlash mumkin: qog'oz, plastik, tosh, oyna, metal va b. Arxitekturaviy materiallarning bir qancha kutubxonalari mavjud.
2	 Blend (Aralashma)	 Ikki xil materiallardan (Material1, Material2) tarkib topgan va maskalar (Mask) bilan qoplangan aralash material yaratish. Mix Amount (Aralashtirish miqdori) parametri materiallarni aralashtirish miqdorini belgilaydi.

3	 <p>Composite (Aralash material)</p>	<p>O'zaro o'nta har xil materiallarni aralashtirish imkonini beradi. Materialni tanlash tugmasi ro'parasida uning intensivlik qiymati, shuningdek aralashish turlarini belgilovchi tugma joylashadi: «A» Additive (Additiv) – materialni ancha yorqin qiladi; «S» Subtractive (Subtraktiv) – rangni ayirish; «M» – Mix (Aralashgan).</p>
4	 <p>Double Sided (Ikki tomonlama)</p>	<p>Ob'ektning old (Facing Material) va orqa (Back Material) tomoni uchun ikkita materialni o'zlashtiradi. Translucency (yarim shaffof) parametri materiallarning shaffofligini belgilaydi.</p>
5	 <p>Matte/Shadow (Maska/Soya)</p>	<p>Ob'ektlarni ikki o'lchovli fonlar (Background) bilan ko'shish imkonini beradi.</p> <p>Ob'ekt joylashgan tekislikga material qoplangandan so'ng, u shaffof bo'ladi, ob'ekt soyasi esa qoladi.</p>
6	 <p>Multi/Sub-Object (Ko'p qismli material)</p>	 <p>Ko'p qismli material ob'ektga bir qancha materiallarni qo'llash imkonini beradi. Ob'ektning turli sohalari materiallarni o'zlashtirilishi ID (Identifikasion raqam)ga bog'liq ravishda yuz beradi. Ko'p qismli material bilan ishlash uchun ob'ekt tahrirlanadigan bo'lishi kerak (Editable Mesh va b.).</p> <p>Multi/Sub-Object Basic Parameters (Ko'p qismli materialning asosiy parametrlari) bo'lmasidagi Set Number (Materiallar sonini belgilash) tugmasi kerakli sonidagi materiallarni yaratadi.</p>

7	 <p>Raytrace (Iz qoldirish)</p>	<p>Iz qoldirish uslubi yorug'lik nuri qaytadigan va sinadigan realistik yuzalar (suv, oyna, muz, metal, olmos va b.) yaratish imkonini beradi.</p> <p>Asosiy parametrlardan biri IOR (Index of Refraction (Sinish koeffitsienti)) hisoblanadi. Ushbu koeffitsientni berish orqali turli yuzalarni olish mumkin (IOR=1,33 (suv); IOR=1,31 (muz) va b.).</p> <p>Oyna, suv, qimmatbaho toshlar va boshqa predmetlarning yaratilgan andazalari bilan berilgan Raytrace materiallari kutubxonasi mavjud.</p>
8	 <p>Shellac (Shellak – tabiiy smola)</p>	<p>Ikkita materialni aralashtirish imkonini beradi: Base Material (Asosiy material) va Shellac Material (rassomchilikda qo'llaniladigan smola). Shellac Color Blend parametri materiallarni aralashtirish o'lchamini belgilaydi.</p>
9	<p>Standard (Standart)</p>	<p>Materiallarni tahrirlash yacheykalarida avvaldan joylashtirilgan materiallar.</p>
10	 <p>Top/Bottom (Yuqori/Quyi)</p>	<p>Ob'ektning yuqori (Top Material) va qo'yi (Bottom Material) qismlari uchun ikkita materiallar yaratish.</p> <p>Parametrlar: Blend (aralashtirish) – materiallar orasida engil o'tishni belgilaydi; Position (xolat) – materiallar orasidagi chegaralar holatini belgilaydi.</p>

### Material parametrlari bo'lmasi. Xarita turlari

Material Editor (Materiallar muxarriri) oynasining pastki qismida noyob materiallarni yaratish imkonini beruvchi parametrlarini taxrirlash bo'lmasi joylashgan.

### Shader basic parameters (sheyder asosiy parametrlari) bo'lmasi


Shader(Sheyder) qirralarni silliqlash algoritmlari va materialning oynadagi shu'lalari aksini o'zida ifodalaydi.



3 D Studio Max dasturida 8 ta har xil turdagi sheyderlar quvvatlanadi (9-rasm):

1. Anisotropic (Anizotropli)- shu'lalarni boshqarish, ularning intensivligi belgilash va ob'yektga yo'naltirish imkonini beradi.

2. Blinn(Blinn bo'yicha)- shart bo'yicha o'rnatilgan silliqlash algoritmi.



**9-rasm. Sheyder turlari: 1. Blinn(Blinn bo'yicha); 2. Metal(Metall);  
3. Multi-Layer(Ko'pqatlamli sheyder); 4. Translucent Shader  
(Yarim shaffof sheyder)**

3. Metal(Metall)- metal yuzalarni imitatsiyalovchi sheyder (yorqin,keskin farq qiluvchi shu'lalar).

4. Multi-Layer(Ko'pqatlamli sheyder) -ob'yekt sirtiga 2 ta shu'la yaratish imkonini beradi.

5. Oren-Nayar-Blinn (Oren-Nayar-Blinn bo'yicha)- jilosiz yuzani imitatsiyalaydi. Gazlamalar uchun qulay.

6. Phong(Fong bo'yicha)- Blinn sheyderiga o'xshash bo'lib, undan mayin shu'lalar va tezkor vizuallashishi bilan farqlanadi.

7. Strauss(Shtraus bo'yicha)- metall yuzalarni imitatsiyalashning yana bir turi. Noyob Metalness (Metall imitatsiyasi) parametriga ega.

8. Translucet Shader (Sheyder yarim shaffof)- yarim shaffof yuzalarni, xususan jilosiz va naqshinkor shishalarni imitatsiyalash uchun qulay.

Ushbu bo'lmada sheyderni tanlashdan tashqari yana 4 ta qo'shimcha parametr joylashgan:

1. Wire(Sim) ushbu parametr o'rnatilganda ob'yekt karkasining faqatgina qirralari aks etadi.


2. Face Map(Yo'q xaritasi) ob'yektning har bir tomoniga xaritani joylashtiradi.

3. 2-Sided (Ikki tomonlama) - ob'yektning ichki va tashqi tomonlariga qo'llaniladi.

4. Faceted(Yoqli) – qirralarni silliqlash algoritmining o'chirilishi.

### **Blinn basic parametrs (Blinn bo'yicha sheyder asosiy parametrlari) bo'lmasi**

Mazkur bo'lma tanlangan sheyderga bog'liq ravishda o'zining nomi va parametrlarini o'zgartiradi (10-rasm).



**10-rasm. Blinn bo'yicha sheyder asosiy parametrlari bo'lmasi**

Chap tomondagi yuqori qism menyuda uch xil parametrlar uchun ob'yekt rangi beriladi:

1. Ambient (Tashqi muhit)- soya soxasidagi material rangi (faqatgina tarqoq nurlar bilan yoritiladi).
2. Diffuse (Qorishiq yorug'lik)- ob'yektning asosiy rangi. Odatda Diffuse parametric fiksator tugmasi yordamida Ambient parametri bilan bog'liq bo'ladi (parametrlarning chap tomonida).
3. Specular (Oynali)- Ob'yektning oynali nuri.

Ob'yekt rangini o'zgartirish uchun yozuvning chap tomonidagi to'g'ri to'rtburchakka sichqonchanning chap tugmasini bosish va hosil bo'lgan Color Selector oynasidan kerakli rangni tanlash lozim. Rangni tanlash sohasi ro'parasidagi kvadrat tugma xaritada ushbu parametrni qo'llash imkonini beradi(M harfi- qo'llanilgan xaritalar alomati (-rasm)).

Self –Illumination (o'zini o'zi nurlantirish) qism menyusida tanlangan rang (Color), intensivlik yoki xaritalarga bog'liq ravishda ob'yektning nurlanishi belgilanadi.

Opacity (Shaffoflik) parametri tanlangan xarita va intensivlikni belgilashga bog'liq holda shaffof materiallarni yaratadi.

Specular Highlights (Shu'lalar) qism menyusida uch xil parametrlar yordamida shu'lalarni yaratish boshqariladi:

1. Specular Level (Chaqnash kuchi) - shu'laning ravshanligini boshqaradi.
2. Glossiness (Yaltirash) - shu'la o'lchamini boshqaradi.
3. Soften (Xiralashtirish) - shu'la dog'larini silliqlashni boshqaradi.







Extended Parameters (Kengaytirilgan parametrlar) bo'lmasida shaffoflik parametrlari (Advanced Transparency), Wire (Sim) parametrining diametri va aks ettirishning intensivlik darajasi (Reflection Dimming) boshqariladi.



### **Maps bo'lmasi (material xaritalari)**

Material xaritasi o'zida material parametrlaridan biri qoplangan tasvirni ifodalaydi. Material xaritalarining har xil turlari Material/Map Browser (Materiallar/Xaritalar muharriri) oynasida joylashgan. Ushbu bo'lmada un beshta parametrlar joylashgan bo'lib, har xil intensivlikda muayyan xaritalarni o'zlashtirish mumkin.

### **3-jadval. Maps (Material xaritalari) bo'lmasidagi parametrlar**

<b>№</b>	<b>Material parametri</b>	<b>Tavsifi</b>
1	Ambient Color (Yuzani o'rab turgan rang)	Ushbu parametr yordamida materialdagi soyalar sohasini o'zgartirish mumkin.
2	Diffuse Color (Qorishgan rang)	Materialning asosiy rangi.
3	Specular Color (Oynali rang)	Yorqin materiallardagi shu'lalar rangi.
4	Diffuse Level	Diffuse Color parametri yorqinligini nazorat qilish

	(Qorishganlik darajasi)	uchun mo'ljallangan.
5	Specular Level (Oynali daraja)	Qo'llanilgan xaritaga bog'liq ravishda shu'lalar intensivligini o'zgartiradi.
6	 Glossiness (Yaltirash)	Xaritaga bog'liq holda bir qismni ancha yaltiroq ko'rinishga olib keladi, boshqa qismlarni esa pastroq yaltiratadi.
7	Anisotropy (Anizotropiya)	Anisotropic (Anizotropli) va Multi-Layer (Ko'p qatlamli) sheydlar uchun anizotropli shu'lalar shaklini nazorat qiladi.
8	Orientation (Orientirlanish)	Anisotropic (Anizotropli) va Multi-Layer (Ko'p qatlamli) sheydlar uchun anizotropli shu'lalar holatini nazorat qiladi.
9	 Self-Illumination (O'zini o'zi nurlantirish)	Ishlatilgan xaritaga bog'liq ravishda materialning nurlanish sohasini nazorat qiladi.
10	 Opacity (Shaffoflik)	Ishlatilgan xaritaga bog'liq ravishda materialning shaffofligini nazorat qiladi.
11	 Filter Color (Saralangan rang)	Materialning shaffof qismlariga rang beradi.
12	 Bump (Bo'rttirib chiqarish)	Rangga bog'liq ravishda materialga bo'rttirib ishlangan rasmni yaratadi (yorug' qismlar – bo'rtib chiqqan, qorong'u qismlar – botiq).
13	 Reflection (Aks ettirish)	Oynali yuzalardan aks etish imitatsiyasi.


14	 <p>Refraction (Sinish)</p>	Shaffof yuzalar orqali yorug'lik nurining sinish imitatsiyasi.
15	 <p>Displacement (Siljish)</p>	Ob'ekt yuzasi shaklini o'zgartiradi.





### Xaritalar (maps) turi

Xaritalarning bir qancha turlari mavjud: rastrli tasvir, prosedurali xaritalar (matematik algoritmlar orqali yaratiladi), tarkibli xaritalar (maskalardan foydalanish) va b.







Maps (Xaritalar) bo'lmisidagi None (hech qaysi) tugmalaridan biri bosilsa Material/Map Browser (Materiallar/Xaritalar muharriri) oynasi ochiladi, undan New (Yangi) bandi tanlanganda pastda xarita turlarini tanlash qism menyusi paydo bo'ladi. All (barchasi) parametri bosilganda xaritalarning barcha turlari aks etadi.

### 4-jadval. Xaritalarning asosiy turlari








№	Xarita turi	Tavsifi va parametrlari
<b>2D Maps (Ikki o'lchovli xaritalar)</b>		
1	 <p>Bitmap (Rastrli tasvir)</p>	<p>Ob'ektga tanlangan rastrli tavsir yoki videorolikni qoplash. Coordinates (Koordinatalar) bo'lmisida Bitmap xaritalari quyidagi parametrlar bilan beriladi: 1. Tasvirdan tekstura (Texture) yoki orqa fon (Environ) sifatida foydalanish; 2. Ob'ektga tasvirni takrorlash orqali mozaikali xaritalar yaratish; 3. Turli o'qlar bo'yicha tasvirni burish (Angle); 4. Tasvirning emirilishi (Blur).</p> <p>Bitmap Parameters bo'lmisidagi Cropping/Placement (Kesib olish/Joylashtirish) qism menyusida tasvirning bir</p>





		<p>qismini tanlab olish yoki uni ob'ektning ixtiyoriy qismiga ko'chirib o'tish mumkin.</p> <p>Output (Chiqarish) bo'lmasi tasvirning yorqinligi, farqi va rangini tahrirlash uchun mo'ljallangan.</p>
2	 <p>Checker (Shaxmat maydoni)</p>	<p>Shaxmat maydoniga o'xshash xarita yaratish.</p> <p>Checker Parameters bo'lmasida rang va rastrli tasvir kataklari belgilanadi, shuningdek kataklar o'rtasidagi o'tishlar silliqatlanadi (Soften).</p>
3	 <p>Gradient (Gradient)</p>	<p>Uch xil ranglar o'rtasida silliq o'tishni yaratish.</p> <p>Color 2 Position parametri o'rtacha rang joyini belgilaydi. Gradient Type opsiyasi yordamida chiziqli va radial gradientlari oralig'ini o'zgartirish mumkin. Noise (Shovqin) parametri ob'ektga gradientni har xil me'yorda taqsimlash imkonini beradi.</p>
4	 <p>Gradient Ramp (Gradient diagrammasi)</p>	<p>Gradient diagrammasi yordamida silliq o'tishni vujudga keltirish ixtiyoriy sondagi silliq o'tishlarni yaratish imkonini beradi.</p> <p>O'tishni vujudga keltirish uchun diagrammaga sichqonchani chap tugmasini bosish kerak (o'tish markeri paydo bo'ladi).</p> <p>Agar markerga sichqonchani o'ng tugmasi bosilsa buyruqlardan tarkib topgan ko'shimcha menyu paydo bo'ladi: Edit Properties (Marker opsiyasini tahrirlash); Copy (Markerdan nusxa olish); Paste (Nusxa olingan markerni ko'yish); Delete (Markerni o'chirish).</p> <p>Gradient Type opsiyasi yordamida turli gradientlar oralig'ini o'zgartirish mumkin.</p> <p>Interpolation (Interpolyasiya) opsiyasi ranglar o'rtasidagi silliq o'tishlarni boshqaradi.</p>
5	 <p>Swirl (Uyurmalanish)</p>	<p>Ikki xil rangdagi uyurmalanishni yaratish.</p> <p>Xarita quyidagi parametrlarga ega: Color Contrast (Rang qarama-qarshiligi); Swirl Intensity (Uyurmalanish intensivligi); Swirl Amount (Uyurma kengligi).</p> <p>Swirl Appearance (Uyurmaning paydo bo'lishi) qism menyusida aylanishlar soni (Twist) ko'rsatiladi.</p>



6	 <p data-bbox="416 501 608 535">Tiles (Bo'lak)</p>	<p data-bbox="735 275 1458 309">Ob'ektga bo'laklarning turli variantlarini joylashtirish.</p> <p data-bbox="735 327 1493 517">Xarita parametri bo'lak rangini va bo'laklararo bo'shliqni o'zgartirish, shuningdek bo'laklarni gorizonta va vertika bo'yicha sonini ko'rsatish imkonini beradi.</p>
<b>3D Maps (Uch o'lchovli xaritalar)</b>		
7	 <p data-bbox="357 835 667 869">Cellular (Katakli yuza)</p>	<p data-bbox="735 622 1126 656">Katak gulli bezaklar yaratish.</p> <p data-bbox="735 674 1493 864">Parametrlarda katak rangi (Cell Color), ikkiga bo'linuvchi rang (Division Colors) va ularning ob'ektga joylashish parametrlari (Size (O'lcham), Fractal (Fraktal joylashish) va b.) belgilanadi.</p>
8	 <p data-bbox="424 1108 600 1142">Dent (O'yoq)</p>	<p data-bbox="735 907 1219 940">Bir jinsli bo'lmagan yuzani yaratish.</p> <p data-bbox="735 958 1493 1037">O'yoqning o'lchami (Size), chuqurligi (Strength) va soni (Iterations) ko'rsatiladi.</p> <p data-bbox="735 1055 1493 1133">O'yoqli yuzalarni yaratish uchun Bump (Bo'rttirib chiqarish) parametri sifatida foydalanish kerak.</p>
9	 <p data-bbox="392 1391 632 1424">Marble (Mramor)</p>	<p data-bbox="735 1200 1493 1279">Mramorli yuzani imitatsiyalovchi ikki xil rangdagi prosedurali xarita yaratish.</p> <p data-bbox="735 1296 1493 1375">Parametrlarda o'lcham (Size), taram-taram yo'llar kengligi (Vein Size) ko'rsatiladi.</p>
10	 <p data-bbox="400 1709 624 1742">Noise (Shovqin)</p>	<p data-bbox="735 1451 1493 1529">Ranglarning tasodifiy joylashuvi bilan ikki xil rangdagi emirilgan yuzani yaratish.</p> <p data-bbox="735 1547 1493 1738">Noise Type (Shovqin turi) qism menyusida joylashuvning uch xil varianti yaratiladi: Regular (Normal); Fractal (Fraktal); Turbulence (uyurmalanish bilan).</p>
11	 <p data-bbox="368 2011 655 2089">Perlin Marble (Sadaf mramor)</p>	<p data-bbox="735 1865 1493 1989">Mazkur proseduraviy xarita Marble (Mramor) xaritasiga o'xshash bo'lib, undan to'yingan o'ziga xoslik bilan farqlanadi.</p>



12	 <p data-bbox="400 450 624 483">Planet (Sayyora)</p>	<p data-bbox="735 259 1193 293">Sayyoralar yuzasini imitatsiyalaydi.</p> <p data-bbox="735 309 1485 432">Parametrlarda suv (Water) va landshaft (Land) uchun bir qancha rang turlari va ularning ob'ektda joylashuvi ko'rsatiladi.</p>
13	 <p data-bbox="400 736 624 770">Smoke (Tutun)</p>	<p data-bbox="735 528 1305 562">Ikki xil rangdagi tutunli teksturani yaratish.</p> <p data-bbox="735 577 1485 651">Parametrlarda o'lcham (Size), joylashgan o'rni o'zgarishi (Phase) va boshqalar ko'rsatiladi.</p> <p data-bbox="735 667 1485 741">Opacity parametri yordamida tutun va tuman effektlari yaratiladi.</p>
14	 <p data-bbox="352 1023 675 1057">Speckle (Kichkina dog')</p>	<p data-bbox="735 904 1273 938">Dog'li ikki xil rangdagi tekstura yaratish.</p>
15	 <p data-bbox="400 1310 624 1344">Splat (Tomchi)</p>	<p data-bbox="735 1102 1485 1176">Buyoqdan tasodifiy tomgan ikki xil rangdagi yuzani yaratish.</p> <p data-bbox="735 1191 1485 1265">Parametrlarda tomchining o'lchami (Size) va kattaligi (Threshold) ko'rsatiladi.</p>
16	 <p data-bbox="384 1574 639 1608">Waves (To'lqinlar)</p>	<p data-bbox="735 1366 1310 1400">Ikki xil rangdagi suv yuzasini imitatsiyalash.</p> <p data-bbox="735 1415 1485 1538">Parametrlarda to'lqinlar soni (Num Wave Sets), radiusi (Wave Radius), to'lqin uzunligi (Wave Len Max, Wave Len Min), amplituda (Amplitude) ko'rsatiladi.</p>
17	 <p data-bbox="400 1839 624 1872">Wood (Daraxt)</p>	<p data-bbox="735 1630 1485 1704">Yog'ochli yuzani imitatsiyalovchi ikki xil rangdagi prosedurali xarita.</p> <p data-bbox="735 1720 1485 1843">Parametrlar: Grain Thickness (Tolaning qalinligi), Radial Noise (Radial bir jinsli emaslik), Axial Noise (Bo'ylama bir jinsli emaslik).</p>
	 <p data-bbox="400 2103 624 2136">Mask (Maska)</p>	<p data-bbox="735 1895 1485 1968">Maskadan foydalanib tasvirning ma'lum qismini berkitish imkonini beradi.</p> <p data-bbox="735 1984 1485 2018">Map (xarita) parametrda kerakli tasvir tanlab olinadi.</p> <p data-bbox="735 2033 1485 2107">Mask (maska) parametrda, qoida sifatida oq-qora tasvirdagi maska belgilanadi.</p>

		Ikkita har xil ranglarni yoki xaritalarni aralashtiradi. Mix Amount parametri aralashtirish kattaligini belgilaydi.
	Mix (Aralashma)	
Other Maps (Yorug'lik nurining aks etishi va sinishi effektlari imitatsiyasi)		
18		Ob'ektlarni aks ettiruvchi tekis yuzani yaratish. Aks ettirishni yaratish uchun Reflection (Aks ettirish) parametrini qo'llash zarur.
	Flat Mirror (Tekis oyna)	
19		Yorug'likning aks etishi va sinishi effektlarini yaratish. Reflection (Aks ettirish) va Refraction (Sinish) parametrlari bilan qo'llaniladi.
	Reflect/Refract (Aks ettirish/Sinish)	
20		Shaffof materialning ingichka qatlami (lupa, ko'zoynak va b.) orqali sinish effektini yaratish.
	Thin Wall Refraction (Ingichka plastinada aks ettirish)	

### Ob'yektga xarita qoplash

Ob'yektga materialni o'zlashtirish jarayoni, Assign Material to Selection

(Ob'yektga materialni qo'llash) tugmasi bosilganda dastur avtomatik tarzda ob'yektni UVW koordinatalar sistemasida aks ettirishidan iborat bo'ladi. UVW xarita koordinatalari (map coordinates) ob'yektga xaritaning joylashuvini xarakterlaydi: U – gorizontall joylashuv; V – vertikal joylashuv; W – chuqurlik. Ko'pincha dastur buni noto'g'ri bajaradi, shuning uchun ob'yektga xaritani qo'lda joylashtirishga to'g'ri keladi.

11-rasmda "Silindr" ob'yektiga Bricks\_Yellow materialini avtomatik joylashtirish natijasi ko'rsatilgan. Bunda silindr asosi tekstura bilan qoplangan, yon tomondagi tekstura g'ishtlari cho'zilgan.



**11-rasm. "Silindr" ob'yektiga Bricks\_Yellow materialini joylashtirilgani**

Aksariyat hollarda dastur, koordinatalarni to'g'rilash kerak aks holda vizuallashtirish natijasi noto'g'ri bo'ladi degan so'rovni chiqaradi. 11-rasm. 3D Studio Max dasturida ob'yektlarni xaritani to'g'ri joylashtirish uchun ikkita modifikator mavjud: UVW Map (UVW xarita) va Unwrap UVW (UVW yoyilgan holat).

UVW Map (UVW xarita) modifikatori ob'yektning alohida tomonlariga xaritalar joylashtirilishini boshqarish imkonini beradi va quyidagi opsiyalarga ega:


1. Mapping (Xaritalarni qoplash) qism menyusida xaritalarning qoplanishi shakllarni o'zgartirish va cheklovchi konteynerlarni joylashtirish (Gismo) orqali boshqariladi: Planar (tekislik), Cylindrical (Gismo silindr shakli), Spherical

(Gismo shar shakli), Shrink Wrap (Qobiq), Box (Quti), Face (Yoq), XYZ to UVW (Koordinatalarni bir-birini ustiga yotqizish) (12-rasm).

Length (Uzunlik), Width (Kenglik), Height (Balandlik) parametrlari Gismo geometrik o'lchamlarni boshqaradi.

U Tile, V Tile, W Tile parametrlari yordamida ob'yektga turli o'qlar bo'yicha takrorlash belgilanadi.

2. Alignment (Tekislash) qism menyusi tanlangan buyruqlarga bog'liq ravishda cheklovchi konteynerni (Gismo) tekislash uchun mo'ljallangan: X, Y, Z – tegishli o'qlar bo'yicha Gismo burish; Fit (Olib kelish) – ob'yekt atrofida Gismo o'lchamlari olib kelinadi; Center (Markaz) – ob'yektga nisbatan Gismo markaziy joylashuvi.



**12-rasm. Cheklovchi konteyner (Gismo) shakllarining turlari: 1. Planar (tekislik), 2. Cylindrical (Gismo silindr shakli), 3. Spherical (Gismo shar shakli), 4. Shrink Wrap (Qobiq), 5. Box (Quti), 6. Face (Yoq), 7. XYZ to UVW (Koordinatalarni bir-birini ustiga yotqizish).**


Murakkab geometrik ob'yektlarga (modellashtirilgan qahramonlar, hayvonlar va b.) xarita qoplash kerak bo'lgan vaziyatlarda Unwrap UVW (UVW moslashgan holat) modifikatori ishlatiladi. Uning imkoniyatlari UVW Map (UVW xarita) modifikatoriga nisbatan kengroq va ob'yektning turli sohalarida xaritani joylashtirishni qo'lda boshqarish imkonini beradi.



Unwrap UVW modifikatori uchta quyi ob'yektlardan tarkib topgan: Vertex (Uch), Edge (Qirra) va Face (Yoq). Tegishli quyi ob'jektini tanlab olib xaritaning joylashgan o'rnini nazorat qilish, moslashgan holatni tahrirlash oynasida ob'jektning tanlangan tarkibiy qismlarini qo'chirib o'tish mumkin (11-rasm).

Mazkur modifikator tarkibida uchta bo'lma mavjud: Selection Parameters (Belgilash parametrlari), Parameters (Moslashtirish parametrlari) va Map Parameters (Xaritalarni taqsimlash parametrlari). Parameters (Moslashish parametrlari) bo'lmasida Edit... (Tahrirlash) tugmasi moslashishlarni tahrirlash oynasini ochadi va uning tarkibida quyidagi buyruqlar mavjud (13-rasm):

1. Belgilangan sohani tahrirlash tugmasi o'zida tanlangan ob'jektini ko'chirish, burish, masshtablashtirish va akslantirish buyruqlarini qamrab oladi.
2. Orqa fon xaritasini tanlash Checker (Shaymat maydoni) parametridan foydalanib xaritani tahrirlash yoki Pick Texture (Teksturani tanlash) buyrug'i yordamida ob'jekt teksturasi fonini tayyorlash imkonini beradi.



**13-rasm. "Shisha" ob'jehti uchun xaritalarni moslashtirish oynasi**

3. Moslashtirish oynasida ob'jektini joylashtirish tugmasi proeksiya oynalari uchun ob'yektlarni joylashtirish tugmasiga o'xshash.

4. Selection Modes (Tanlash turlari) qism menyusi turli quyi ob'yektlarni tanlash imkonini beradi. Reset UVWs (Chiqarish) buyrug'i barcha o'zgarishlarni bekor qilib dastlabki moslashish holatiga qaytish imkonini beradi. Moslashish oynasidagi Mapping bandida joylashgan tushuvchi menyu tahrirlanadigan yuzaga ob'yektni uch xil usul bilan avtomatik bo'lish imkonini beradi: Flatten (Tekis), Normal (Odatdagicha) va Unfold Mapping (Kengaytirilgan).

### **Mustaqil bajarish uchun topshiriq:**

Biror bir ixtiyoriy binoni modelini yarating va binoga standart va maxsus materiallardan foydalangan holda, tekstura bering.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Materiallarning qanday turlari mavjud?
2. Sheyder nima?
3. Xaritalarning qanday turlari mavjud?
4. Standart materiallarga qanday turdagi materiallar kiradi?
5. Tekstura nima?
6. Map Browser muxarririning asosiy vazifasi nima?
7. Materiallar yaratishda nimalarni hisobga olish kerak?
8. Blinn basic parameters bo'lmasi nima vazifani bajaradi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гайдамащук А. В. Исследование программных сред 3D-моделирования [Текст] XVII международный молодежный форум «Радиотехника и молодежь в XXI веке». Сб. материалов форума. Т. 7. — Харьков: ХНУРЭ, 2013.
2. Silverman D. 3D Primer for Game Developers: An Overview of 3D Modeling in Games /David Silverman. <http://gamedevelopment.tutsplus.com/articles/3d-primer-for-game-developers-an-overview-of-3d-modeling-in-games-gamedev-5704>.
3. Билл Флеминг. Создание трёхмерных персонажей
4. 3ds Max. Трёхмерное моделирование и анимация на примерах В. Т. Тозик 2008
5. 3ds Max 2012 Сергей Тимофеев 2011
6. 3ds Max для архитекторов и дизайнеров интерьера и ландшафта Леонид Пекарев 2010
7. Резников Ф.А. 3ds Max 2009 Трёхмерная графика и анимация Год: 2008
8. Трёхмерная компьютерная графика Иванов В. П., А. С. Батраков
9. 3D Animation Essentials 2012 Andy Beane CG 3D Graphics Animation Sybex
10. Essentials Autodesk 3ds Max 2010: Foundation for Games 2009 Donald Ott, Tyler Wanlass, Andy Livingston CG 3D Graphics Focal press
11. Autodesk 3ds Max 2012 Essentials 2011 Randi L. Derakhshani, Dariush Derakhshani CG 3D GRAPHICS sybex
12. Autodesk 3D MAX 2014 Essentials 2013 Randi Darakhshani and Dariush Darakhshani CG 3D Graphics 3D MAX Sybex
13. Тозик В., Меженин А. 3ds Max 9 Трёхмерное моделирование и анимация Серия: В подлиннике БХВ-Петербург 2007
14. Компьютерная графика Учебник для вузов Петров М.Н. Питер 2011
15. Компьютерная графика. Учебник и практикум для СПО Селезнев Владимир Аркадьевич, Дмитроченко Светлана Алексеевна 2016 год
16. Muxamadiev A.Sh. To'rayev V.Z. «3D Modellashtirish va raqamli animatsiya» 2016



“3 d texnologiyalar” fanidan  
o’quv qo’lanma

TATU ilmiy-uslubiy majlisida  
ko’rib chiqildi va chop  
etishga tavsiya qilindi  
« 4 » may 2017  
№ 8(99) - sonli bayonnoma

Mualliflar: X.A.Bahriyeva